ISSN 2181-9335

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI
UNIVERSITETI



2022
MAXSUS SON

# JAMOAT XAVFSIZLIGI
## ilmiy-amaliy jurnali

31 YIL

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
DAVLAT MUSTAQILLIGINING
31 YILLIGIGA BAG‘ISHLANADI

| Muassis: O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI | “JAMOAT XAVFSIZLIGI” ilmiy-amaliy jurnali harbiy, siyosiy, yuridik, tarix, texnika, filologiya, iqtisodiyot, pedagogika va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAKning 2021 yil 30 sentabr kunidagi 306/4-son qarori. |
|---|---|

# MUNDARIJA

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING 31 YILLIGIGA

**DJURAYEV R.M.**

Jamoat xavfsizligini ta’minlashda insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kafolatlari.. **3**

**TURSUNOV B.R.**

Jinoyat protsessida isbotlashning ayrim masalalari..... **7**

**MAMAYUSUPOV S.D.**

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida yoshlarga oid davlat siyosatining ahamiyati ..... **12**

**RUSTAMBAYEV M.X.**

Inson huquqini ta’minlashning konstitutsiyaviy asoslari bo‘yicha ayrim mulohazalar..... **16**

**PULATOV Y.S., USMONOV M.B.**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy asoslari ..... **22**

**AXROROV B.D., NARIMOV I.SH.**

O‘zbekiston mustaqilligi davrida iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishning ayrim xususiyatlari..... **26**

**USMANOVA M.A., AXMEDOVA M.T.**

Yangi O‘zbekistonda inson manfaati bosh omil..... **33**

**ISMAILOV I., NARZULLAYEV O.**

Jamoat xavfsizligini huquqiy ta’minlashni takomillashtirishning ayrim masalalari..... **37**

**MAXSADOV M.I., DJUMAYEV T.T.**

Mustaqillik yillarida harbiy sohadagi qonun hujjatlarini shakllanishi va takomillashuvi..... **43**

**MAMARASULOV D.X., SAMINJANOV M.A.**

Jangovar tayyorgarlikni tashkil etishda zamonaviy ta’lim metodlarini qo‘llash istiqbollari (O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy qismlari misolida)..... **52**

**XURSANDOV A.S., MURADULLAYEV A.A.**

Yangi O‘zbekistonda yoshlarni siyosiy ijtimoiylashuvining ahamiyati..... **58**

**ДОЛГОВА И.Е.**

Защита прав женщин и установление гендерного равенства в Узбекистане за годы независимости..... **64**

**BOYBO'TAYEV J.J., ASHUROV R.N.**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo'lajak ofitserlarida boshqaruv fazilatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari ..... **70**

**MIRZAYEV G.R.**

Yangi O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi..... **76**

**АЛИМОВА Г.А.**

Развитие военно-рекреационных территорий как фактор укрепления военной мощи независимого Узбекистана..... **84**

**OLIMJONOV X.M.**

Yangi O'zbekistonda islohotlar va qonuniylik istiqbollari ..... **90**

**ИСРАИЛОВА Н.А.**

Правовое воспитание детей группы риска как важное условие их успешной адаптации к общественно-правовой жизни в обществе..... **94**

**XO'JAMBERDIYEV F.K.**

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyatini huquqiy ta'minlashda qonun hujjatlari normalarining o'rni va ahamiyati..... **104**

**ГАРАНОВА В.А.**

Социальная защищенность осужденных пенсионеров в Республике Узбекистан за годы независимости..... **113**

**MANKAMOV D.N.**

Yevropa davlatlarida yashil hududlarning huquqiy muhofazasi: tahlil va taklif..... **119**

**XOLIQOV S.M.**

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining milliy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faoliyati samaradorligini oshirish istiqbollari..... **125**

**Долгова Ирина Евдокимовна,**
ведущий научный сотрудник Университета общественной безопасности Республики Узбекистан, кандидат экономических наук, доцент

# ЗАЩИТА ПРАВ ЖЕНЩИН И УСТАНОВЛЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

В этом году наша страна отмечает 31 годовщину со дня принятия государственной Независимости. В своём выступлении на торжественной церемонии по случаю празднования 30-летия Независимости Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев сказал: «***Пройдут годы и века. Придут новые поколения. Но наша независимость, открывшая такие беспрецедентные возможности для возрождения национальной государственности, процветания и благополучия, всегда будет самой яркой, немеркнущей страницей в славной истории нашей любимой Родины***»[1].

Действительно в Узбекистане происходят поистине исторические преобразования, принимаются стратегически важные решения, ставятся масштабные задачи на будущее.

В социально-экономической сфере Узбекистана за последние годы были проведены либеральные реформы, налажен прямой диалог государства и общества, кардинально поменялась ситуация в сфере свободы слова, религии и передвижения, существенно улучшились отношения со странами региона, кардинально изменился имидж страны на международной арене.

Происходящие в обществе изменения затронули экономическую, политическую и социальную сферу государства, повлияли на деятельность многих производственных и общественных организаций. изменили общественное сознание, что, в свою очередь, обусловило перспективы общественного развития.

Провозгласив в Конституции принцип приверженности общепризнанным нормам международного права, Республика Узбекистан присоединилась более чем к 70-ти международным документам в области защиты прав человека и приняла на себя обязательства по созданию необходимых организационно-правовых условий для практического претворения их в жизнь.

Одним из приоритетных направлений государственной политики нового Узбекистана является достижение гендерного равенства, обеспечение прав, свобод и законных интересов женщин, усиление их роли в общественной и государственной жизни.

Наше государство присоединилось ко всем основным международным договорам, предусматривающим правовую, социальную и экономическую защиту женщин от любых форм дискриминации и притеснений.

Основу законодательной системы защиты прав женщин в Республике Узбекистан составляют Конституция Республики Узбекистан, нормы законов и подзаконных актов Республики Узбекистан. В этой сфере принято свыше 20 указов и постановлений Президента и Правительства.

В частности:

- Закон РУ «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» от 2 сентября 2019 г.,
- Закон РУ «О защите женщин от притеснения и насилия» от 2 сентября 2019 г.,
- Постановление Президента РУ «О мерах по совершенствованию системы социальной реабилитации и адаптации, а также профилактики семейно-бытового насилия» от 2 июля 2018 года,
- Постановлением Президента РУ «О мерах по дальнейшему усилению гарантий трудовых прав и поддержке

предпринимательской деятельности женщин» от 7 марта 2019 года,

- Постановление Кабинета Министров «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года» от 20 октября 2018 года;

- Постановление Кабинета Министров «О мерах по совершенствованию системы защиты женщин от притеснения и насилия» от 4 января 2020 года,

- Положение «О порядке выдачи охранных ордеров женщинам, подвергшимся притеснению и насилию, обеспечения их исполнения, проведения мониторинга»,

- «О порядке прохождения лицами, совершившими или имеющими склонность к оказанию давления и насилия, программ по корректировке их поведения»,

- «Стратегия достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года» от 29 мая 2021 и многие другие.

В рамках организации последовательной работы по реализации и достижению Целей устойчивого развития ООН на период до 2030 года в Узбекистане в октябре 2018 года было принято Постановление Кабинета Министров ***«О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года»***.

В данном постановлении пятая цель «***Обеспечение гендерного равенства и расширение прав и возможностей всех женщин***» посвящена задачам достижения гендерного равенства [7].

В данном контексте специальный представитель Генерального секретаря ООН по Центральной Азии, глава Регионального центра ООН по превентивной дипломатии для Центральной Азии Наталья Герман отметила, что международным сообществом позитивно оцениваются усилия Узбекистана в сфере гендерного равенства. Принятие и реализация норм этих законов способствует увеличению доли женщин до 33% на руководящих должностях и 45% — в общей численности трудоспособного населения.

В 1991 году в республике был образован ***Комитет женщин Узбекистана*** с отделениями по всей стране для продвижения конституционных и социальных прав женщин в стране посредством деятельности, направленной на повышение осведомленности женщин о механизмах защиты их прав.

В целях расширения прав Комитета, Указом Президента от 1995 года «***О мерах по повышению роли женщин в государственном и общественном строительстве Республики Узбекистан***» представители Комитета введены в состав правительства на вновь созданные должности.

В 1997 году в составе Комитета женщин Узбекистана было создано Бюро "***Гендер и развитие в Узбекистане***"

В настоящее время в Узбекистане реализуются последовательные меры, направленные на повышение роли парламента в совершенствовании законодательства и правоприменительной практики в области защиты прав женщин:

***во-первых,*** под руководством Председателя Сената Олий Мажлиса создана ***Комиссия по вопросам обеспечения гендерного равенства;***

***во-вторых,*** в верхней палате парламента образован ***Комитет по вопросам женщин и гендерного равенства,*** основной задачей которого является разработка предложений по реализации государственной политики, направленной на обеспечение гендерного равенства, совершенствование законодательства и осуществление парламентского контроля в данной сфере.

Закон Республики Узбекистан ***«О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин»*** закрепляет обеспечение равных прав и возможностей для женщин и мужчин быть избранными в представительные органы власти, быть кандидатами в депутаты от политических партий [5].

В частности, последовательное применение гендерной квоты дало результат на парламентских выборах 2019 года. Впервые в истории Узбекистана в Законодательную палату избранные женщины-депутаты составили **32** процента или 48 женщин от общего числа избранных депутатов, **25** процентов женщин были выбраны в состав Сената. Количество женщин в национальном парламенте достигло уровня, установленного в рекомендациях ООН.

За годы Независимости в республике были созданы ***Министерство по поддержке махалли и семьи,*** одним из приоритетных направлений которого является всесторонняя поддержка женщин, а также ***Фонд по поддержке женщин и семьи,*** призванный оказывать всемерную поддержку женщинам, содействовать их участию в организации семейного и частного предпринимательства, ремесленничества, получению ими знаний и навыков по востребованным на рынке труда профессиям.

Расширен доступ населения, прежде всего женщин и детей, к современным качественным медицинским услугам, лекарственным препаратам. Реализуется сформированный Президентом страны принцип, утверждающий, что забота о здоровье матери и ребенка — это забота о будущем нашего общества.

Федерацией профсоюзов Узбекистана и Министерством по поддержке махалли и семьи создана ***специальная Республиканская рабочая группа,*** которая изучает и выявляет во всех регионах жизненные проблемы женщин, организует работу по сокращению бедности и повышению благосостояния населения.

Для проведения адресной работы по их решению внедрена совершенно новая система — ***«женская тетрадь».*** Это позволяет организовать адресную работу с уязвимыми слоями населения, оказывать более 30 видов социальных услуг в электронной форме. Посредством этой системы за последнее время было трудоустроено 527 тысяч женщин. Только за последние месяцы республиканской комиссии удалось решить проблемы 80 тысяч женщин, 32 тысячи из числа оказавшихся в сложной жизненной ситуации и нуждающихся в социальной поддержке были обеспечены работой.

Для женщин-предпринимателей коммерческими банками республики открыты специальные линии кредитов. За последние годы для развития женского предпринимательства более 327 тысячам женщин были выделены льготные кредиты на 7,4 триллиона сумм.

В республике проводится работа по системному обучению предпринимательской деятельности и льготному кредитованию женщин-предпринимателей. В целях содействия занятости женщин в регионах были созданы центры женского предпринимательства, в которых только в 2020 году более 61 500 женщин прошли обучение на краткосрочных профессиональных курсах. В итоге, несмотря на пандемию, число женщин-предпринимателей достигло 172 700 человек.

Кроме того, расширяются образовательные возможности, для женщин и девушек, нуждающихся в социальной помощи. В частности, в 2020 году 950 девушек из малообеспеченных семей приняты на дневные отделения высших учебных заведений Узбекистана на основе государственного гранта. В 2021 году число квот для девушек превысило две тысячи.

Женщины, оказавшиеся в трудных жизненных обстоятельствах, и девушки, находящиеся на иждивении матерей - одиночек были обеспечены жильём. Только в 2020 году 1 250 женщинам, оказавшимся в трудной жизненной ситуации, были выплачены первоначальные взносы на приобретение жилья в размере почти 22 миллиардов сумм.

Усиливаются меры по предупреждению разных форм насилия в отношении женщин. В соответствии с постановлением Президента «***О мерах по совершенствованию системы социальной реабилитации и адаптации, а также профилактики семейно-быто-***

***вого насилия***» от 2 июля 2018 года в 190 городах и районах созданы центры реабилитации и адаптации. Их основные задачи - оказание экстренной медицинской, психологической, социальной, педагогической, правовой и иной помощи лицам, оказавшимся в тяжёлом социальном положении, столкнувшимся с семейными проблемами и бытовым насилием.

В системе МВД создано 360 должностей инспекторов-женщин по работе с женщинами, которые нуждаются в правовой и социальной помощи. С целью оперативного и качественного оказания поддержки женщинам, пострадавшим от притеснения и насилия, разработаны и внедрены стандартные операционные процедуры по совместному реагированию на гендерное насилие для правоохранительных органов, работников здравоохранения и социально-психологической сферы.

В Независимом Узбекистане в 2021 году утверждена «***Стратегия достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года»***, которая предусматривает «*комплексный подход к внедрению принципа равенства между женщинами и мужчинами во всех сферах и уровнях принятия и исполнения решений*» [4].

Документ способствует продвижению гендерного равенства в экономической, политической и социальной жизни, реализации равных прав и возможностей для женщин и мужчин, а также соблюдения фундаментальных прав человека.

Стратегия охватывает такие вопросы, как обеспечение равного и качественного образования для всех, создание для девочек из сельской местности возможностей получения высшего образования, достижение гендерного равенства женщин, предупреждение насилия и торговли людьми.

В ходе выступления на 46-й сессии Совета ООН по правам человека глава нашего государства подробно остановился на приоритетах углубления демократических преобразований в стране и обозначил новые грани по углублению сотрудничества Узбекистана с ООН в сфере достижения гендерного равенства. В частности, Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев, затрагивая гендерный вопрос, отметил: ***«В вопросах гендерной политики мы намерены кардинально повысить роль женщин в общественной, политической и деловой жизни страны»*** [2].

Таким образом, можно констатировать, что в Республике Узбекистан за годы независимости разработана необходимая нормативно-правовая база в вопросах гендерной политики и защиты прав женщин. Однако реализация на практике разработанных законов и подзаконных актов не всегда является достаточно эффективной.

В обществе существуют определенные стереотипы в отношении традиционных гендерных ролей в узбекской семье, превалируют представления о традиционной роли женщин, связанные с материнством, детьми и семьей, с неравенством общественной роли женщин на государственных постах или в бизнесе, а также притеснения и насилия в отношении женщин на рабочем месте и в семье.

Мы полагаем, что в целях дальнейшего достижения гендерного равенства, государственной поддержки женщин и девочек, создания широких возможностей для достойных условий труда и поддержке социально незащищенных и малообеспеченных женщин было бы целесообразным:

- Усовершенствовать действующее законодательство, в том числе Уголовный кодекс, Кодекс об административных правонарушениях, Закон о защите женщин от притеснения и насилия,
- Устранить негативные взгляды, которые сформировались по отношению к женщинам в обществе, изменить существующие культурные традиции и стереотипы;
- Проводить активную воспитательную работу среди мальчиков

и юношей, закладывать в них с детства почитание и уважение к женщинам и девочкам, как к будущим женам, сестрам, матерям;

- Ввести в школе предмет «***семья как ячейка общества***», в рамках которого преподавать основы взаимоотношения в семье, основанные на принципах равенства и взаимоуважения между супругами;

- Объяснять женщинам и девочкам, особенно проживающим в сельской местности, их права и роль в предотвращении жестокого обращения и разрешения конфликтов;

- Обеспечить доступ женщин и девочек к правосудию, поощрять их обращения в правоохранительные органы с жалобами на гендерное насилие;

- Создать во всех территориальных единицах «пункты защиты женщин и девочек от гендерного насилия», включающие в себя круглосуточные «горячие линии» по приёму жалоб женщин и оказанию им экстренной медицинской, психологической, экономической помощи, включая временное жильё и медицинское обслуживание;

- Создать во всех территориальных единицах республики «пункты самообороны женщин», которые призваны обучить женщин и девочек приёмам самообороны, правилам поведения в конфликтных ситуациях;

- Своевременно и по всей строгости закона наказывать людей виноватых во всех видах насилия по отношению к женщинам и девочкам, делать данные наказания по возможности публичными с привлечением средств массовой информации, в целях формирования в обществе негативного взгляда на гендерное насилие;

- Увеличить количество квот для женщин служащих на государственных и дипломатических службах, в том числе в представительстве за рубежом;

- Увеличить число женщин в вооружённых силах и правоохранительных органах республики;

- Повысить эффективность работы по обеспечению занятости, созданию достойных условий труда и поддержке социально незащищённых и малообеспеченных женщин, особенно женщин из семей, проживающих в сельской местности;

- Оказать влияние на изменение культурных традиции и стереотипов.

## Использованная литература

1. Мирзиёев Ш.М. Речь на торжественной церемонии празднования 30-летия Независимости Республики Узбекистан, 31.08.2021, http://www.press-service.uz.

2. Мирзиёев Ш.М. «Выступление на 46-й сессии Совета ООН», http://www.press-service.uz.

3. Указ Президента Республики Узбекистан № 841 «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года», https://lex.uz/docs/4013358?query=Program

4. «Стратегия достижения гендерного равенства в Узбекистане до 2030 года» № 297 от 29 мая 2021. https://lex.uz/ru/docs/5466725

5. Закон РУ «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин» от 2 сентября 2019 г. №562 https://lex.uz/docs/4494873

6. Закон Республики Узбекистан «О защите женщин от притеснения и насилия» от 2 сентября 2019 г. № 561 https://lex.uz/docs/4494712

7. Постановление Кабинета Министров «О мерах по реализации национальных целей и задач в области устойчивого развития на период до 2030 года» от 20 октября 2018 года, https://lex.uz

8. http://www.stat.uz. Государственный Комитет Республики Узбекистан по

статистике.

**Долгова И.Е. Защита прав женщин и установление гендерного равенства в Узбекистане за годы независимости**

Статья посвящена вопросам защиты прав женщин и установления гендерного равенства в Республике Узбекистан за годы независимости. В ней проанализирована государственная политика нового Узбекистана по вопросам достижения гендерного равенства, обеспечения прав, свобод и законных интересов женщин, усиления их роли в общественной и государственной жизни, даны предложения по дальнейшему достижению гендерного равенства и государственной поддержки женщин и девочек.

Ключевые слова: государственная независимость, гендерное равенство, государственная поддержка, права, свободы, законные интересы женщин.

**Dolgova I.Y. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini o‘rnatish**

Ushbu maqola mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tengligini o‘rnatishga bag‘ishlangan. Unda yangi O‘zbekistonning gender tengligiga erishish, xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash, ularning jamiyat va davlat hayotidagi rolini kuchaytirish bo‘yicha davlat siyosati tahlil qilinib, muallifning gender tengligiga yanada erishish, xotin-qizlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: davlat mustaqilligi, gender tengligi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ayollarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlari.

**Dolgova I.E. Protection of women's rights and establishment of gender equality in Uzbekistan during the years of independence**

This article is devoted to the protection of women's rights and the establishment of gender equality in the Republic of Uzbekistan during the years of independence. It analyzes the state policy of the new Uzbekistan on achieving gender equality, ensuring the rights, freedoms and legitimate interests of women, strengthening their role in public and state life, and gives the author's proposals for further achieving gender equality, state support for women and girls.

Key words: state independence, gender equality, state support, rights, freedoms, legitimate interests of women.

**Boybo‘tayev Jahongir Jumanazar o‘g‘li,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Umumiy taktika va operativ san’at” kafedrasi boshlig‘i,
harbiy fanlar .bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
**Ashurov Rovshan Nosirovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Umumiy taktika va operativ san’at” kafedrasi dotsenti, dotsent

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY GVARDIYA BO‘LAJAK OFITSERLARIDA BOSHQARUV FAZILATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, o‘tgan davr ichida Qurolli Kuchlari juda murakkab va sharafli yo‘lni bosib o‘tdi. Yosh davlati-mizning o‘ta og‘ir shakllanish yillarida aynan Qurolli Kuchlari mamlakatimiz mustaqilligi, xalqimizning tinch hayoti va farovonligini ta’minlash, demokratik islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning ishonchli kafolati bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, keyingi yillarda amalga oshirilgan tub islohotlarimiz tufayli tarixan qisqa davrda O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti va hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan, tezkor milliy armiya tashkil etishga erishdik. Lekin bugungi globallashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojarolar va qarama-qarshiliklar armiyamizda yangi islohotlarni olib borishga undaydi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida **“Harbiy xizmatchilar, ayniqsa komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish milliy armiyani yanada rivojlanishning eng muhim sharti bo‘lib qolmoqda”** degan iboralari buning isbotidir[1].

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ofitserining xizmat va jangovar faoliyati uning shaxsi-yatining kasbiy tuzilishini shakllantiruvchi, ayni paytda jamoada ofitserning boshqaruv fazilatlarining asosi bo‘lgan ma’lum fazilatlar majmuini talab qiladi.

Ofitserning boshqaruv fazilatlarini aniqlab shuni ta’kidlash mumkinki, harbiy boshqaruv tuzilmasi maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan shaxslarning harbiy xizmatchilari o‘rtasida aniq farqlanishni nazarda tutadi. Ushbu toifadagi shaxslar "boshliqlar" deb ataladi. Ularning nazorati ostida bo‘lganlar "bo‘ysunuvchilar" deb ataladi. Harbiy xizmatchining "boshliq" toifasiga kirishi, uni avtomatik ravishda boshqaruv tuzilmasi faoliyatiga jalb qiladi. Shuningdek, o‘z tomonidan tarbiyachining ichki resurslari bo‘lgan bir qator harakatlarni amalga oshirishni nazarda tutadi va bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibni samarali o‘qitish va ular ustidan rahbarlik qilish uchun foydalaniladi.

Har qanday darajadagi ofitserning boshqaruv faoliyati boshqaruv qarorining natijasi bo‘lgan boshqaruv obyektiga direktiv va maqsadli ta’sir ko‘rsatish shaklida amalga oshiriladi. Boshqaruv qarorlari ofitserning qarama-qarshiliklar va vaziyatdagi o‘zgarishlarni hal qilishda namoyon bo‘ladigan harakatlarini o‘z ichiga oladi. Har qanday qaror vaziyatni tavsiflovchi ma’lumotlarni tahlil qilish, maqsad va vazifalarni belgilashga asoslanadi va tadbirlarni amalga oshirish uchun dastur, harakatlar algoritmini o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv qarorlari samaradorligining xususiyatlarini muhokama qilishni boshlashdan oldin, mansabdor shaxsning boshqaruv faoliyatining mohiyati va tuzilishini ko‘rib chiqaylik. Rossiya olimi Yu.N.Korovinning fikricha: “Boshqarish deganda bashorat qilish va rejalashtirish, tashkil etish, jamoaga rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish

tushuniladi” [2]. Bu so‘zlar boshqaruv faoliyatining samaradorligiga ta’sir etuvchi asoslarni izlashga undaydi.

Ta’kidlash lozimki boshqaruv faoliyati Milliy gvardiya qo‘shinlari ofitserining kasbiy kompetentligini segmenti sifatida belgilanadi. Tadqiqot ko‘rinishida biz boshqaruv sifatlari, bu ofitserning boshqaruv kompetentligi uchun vosita sifatida ko‘rib chiqamiz.

Milliy gvardiya ofitserining boshqaruv fazilatlari mavjudligi to‘g‘risida xulosa chiqarishga imkon beradigan umumiy belgilar, bu uning kasbiy va psixologik kompetentlik darajasini o‘ziga xos xususiyatlari hisoblanadi.

O‘ziga xosligi Milliy gvardiya ofitseri o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirishlari Milliy gvardiya qo‘mondonining “**O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilarining (xodimlarining) odob-axloq va muomala madaniyati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida**” 2020 yil 26 aprel kunidagi 91-sonli buyrug‘ida aks etgan:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoyilik;

davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;

adolatlilik, halollik va xolislik;

manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik

Rossiya olimi **R.L.Krichevskiy** zamonaviy boshqaruv-ofitserning fazilatlarini aniqlab, o‘z qarashlarida quyidagicha ta'riflaydi :

**Yuqori professionallik.** Komandirning tashkiliy fazilatlari qanday bo‘lishidan qat’i nazar, u uchun asosiy narsa yuqori professionallik, o‘z mutaxassisligini anglashida va xususiyatlarini bilishdadir. Bu komandirning hurmatini shakllantirish va qo‘llab-quvvatlash uchun asos bo‘lib, berilgan vazifalarni sifatli bajarishi bunga bog‘liqdir;

**Mas’uliyat va ishonchlilik.** Ofitserning bu fazilatlari uni o‘zi va qo‘l ostidagilarning xatti-harakatlari uchun javobgar bo‘lishga majbur qiladi va ularning ishonchni uyg‘otadi, shuningdek, sodiq va bardoshli bo‘ladi. Bu fazilatlarning barchasi ofitserlarga xosdir.

**Mustaqillik.** Asosiysi, komandir paydo bo‘layotgan muammolarga, o‘zining nuqtai nazariga, professional va insoniy qiyofasiga ga bo‘lishi, shuningdek, bularni qo‘l ostidagilarida qo‘llab-quvvatlashi lozim. O‘rinbosar va maslahatchilar qanchalik yaxshi bo‘lmasin, komandir atrofidagi odamlardan qanday maslahatlar olsa ham, o‘zi aniq bir qaror qabul qilishi kerak;

**Muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati.** Maqsadga erishishga intilish. Shu o‘rinda biz komandirning aql-zakovati muammosiga duch kelamiz. Komandir uchun amaliy aql-zakovat, ya’ni boshqaruv faoliyatining kundalik muammolarini ijodiy hal qilish qobiliyati katta ahamiyatga ega.

**Hissiy muvozanat va stressga chidamlilik.** Komandir uchun o‘zining hissiy ko‘rinishlarini nazorat qila olish juda muhimdir. Atrofdagilar bilan, uning kayfiyati va shaxsiy fe’l-atvoridan qat’i nazar, u adolatli va ishbilarmon munosabatlarni o‘rnatishga majburdir. Hissiy nomutanosiblik insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, shu orqali uning boshqaruv faolligini kamaytiradi.

**Muloqotga kirishuvchanlik, xushmuomalalik, qo‘l ostidagilarga yaqinlik.** Komandir ishlarning haqiqiy holatini bilsa, o‘z qo‘l ostidagilar bilan faol munosabatda bo‘lsa va ularga tayansagina to‘g‘ri va oqilona qarorlar qabul qilishi mumkin. Bularning barchasiga faqat o‘zida muloqotga tez kirishishni, xushmuomalalikni rivojlantira olishi bilan erishish mumkin. [3].

Tadqiqotchi **A.N.Ashixmin** o‘z ishida ekstremal sharoitlarda, sezilarli jismoniy zo‘riqish va psixologik stress fonida namoyon bo‘ladigan boshqaruv fazilatlarini yoritib beradi. U mehnatsevarlik, o‘zaro muloqot qobiliyati, o‘zaro yordam, o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik, bir so‘zlik, vazifalarni hal qilishda qat’iyatlilik, shijoatlilik, halollik, adolat, mardlik, kursdoshlarini boshqarish va ularga rahbarlik qilish istagi, topshirilgan vazifa uchun mas’uliyat hissi kabi fazilatlarning namoyon bo‘lishini kuzatdi [4].

Nomzodlik dissertatsiya ishida **Ye.E. Lukyanchikov**, oddiy sifatlarni sanab o'tish bilan bir qatorda, ofitserning komandir bo'lgan faoliyatida yetakchilikni ta'minlaydigan 3 guruh sifatlarni ajratadi: 1-guruh malakali harbiy mutaxassisning fazilatlari, 2-guruh qo'l ostidagilarining rahbari va tashkilotchisini fazilatlari, 3-guruh qo'l ostidagilarni qanday tarbiyalashni biladigan harbiy o'qituvchi-pedagogning fazilatlari. Ushbu guruhlarning har biri odatda jamoa rahbarini ko'p jihatdan tavsiflovchi ko'plab o'ziga xos fazilatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, bu fazilatlarning bir qismi psixologik jarayonlar va shaxs xususiyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirsa, ikkinchi qismida ijtimoiy muhitda o'zlashtirilgan shaxsiy tajribada hamda bo'lajak ofitserlarni tayyorlash va tarbiyalash uchun tashkil etilgan o'quv faoliyati jarayonlarida shakllanadigan shaxsning o'zlashtirilgan bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari, axloqiy odatlari aks etadi [5].

**N.N. Maslyanov** komandirlarni tayyorlashning asosi o'z-o'zini tarbiyalash va o'zining mustaqil ta'limdir, muvaffaqiyatli boshqaruv faoliyatining kaliti esa chuqur bilim va uni muayyan vaziyatda amaliyotda qo'llash qobiliyati deb biladi. Uning fikricha, ikkita sifat bloki boshqaruv funksiyalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi: shaxsiy, kasbiy.

Birinchisiga vatanparvarlik, xarakterning mustahkamligi, tashabbuskorlik, kuchli iroda, matonat, jasorat va boshqa axloqiy fazilatlar kiradi. Ikkinchisiga odamlarni umumiy maqsad sari birlashtiradigan harbiy odamning ko'nikmalari, taktik va strategik fikrlash harakatlar majmuasini kiritadi. Ofitserlar odamlarni buyruq kuchi bilan emas, balki komandir harakatlarining to'g'riligiga ishonchi kuchi bilan boshqarishi kerak [6].

**O.I. Skriypnikov** komandirni boshqaruvchanlik sifatlarini oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi fazilatlarni ta'kidlaydi:

- bo'linmaning jamoatchilik faoliyatida faolligi;
- kasbiy tayyorgarlik, harbiy ishlarni chuqur bilish, namunali harbiy-texnik tayyorgarlik;
- o'z kasbiga muhabbat, mehnatga mas'uliyatli va ijodiy munosabat;
- kundalik hayotda va oilada axloqiy poklik, halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, samimiylik, kamtarinlik ;
- tashkilotchilik qobiliyati, ishbilarmonlik, amaliy tushuncha, barcha yangi va ilg'or narsalarni o'z vaqtida payqash va qo'llab-quvvatlash qobiliyati;
- intizomlilik, mehnatsevarlik, maqsadlilik, tashabbuskorlik, chidamlilik, o'zini tuta bilish, qat'iyatlilik, mardlik, harbiy xizmatdagi qiyinchiliklar va mashaqqatlariga bardosh bera olish;
- xushmuomalalik, g'amxo'rlik bilan uyg'unlashgan holda yuksak talabchanlik, adolat va insonning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish;
- shubhalilik, asabiylashish, jahldorlik va takabburlik yo'qligi;
- pedagogik tafakkur va pedagogik mahorat [7].

Shunday qilib, yuqorida keltirilgan boshqaruvchi - ofitserning boshqaruv kompetensiyalarining xususiyatlarini tahlil qilib, Milliy gvardiya ofitserining boshqaruv fazilatlarining muhim xususiyatlarini ajratib ko'rsatishimiz quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- yuqori intellekt
- aniq shaxsiy maqsadlarning mavjudligi (maqsadlilik)
- psixoanaliz qilish qobiliyati
- his etishdan foydalanish
- stressga chidamlilik
- vazminlik
- o'zini o'zi boshqarish qobiliyati
- hamdardlik
- tashkiliy uddaburonlik
- faol psixologik ta'sir ko'rsatish qobiliyati
- xushmuomalalik
- g'amxo'rlik, adolat va shaxsiy qadr-qimmatni hurmat qilish bilan -uyg'unlashgan yuqori talablar
- yuqori professionallik
- muloqotga tez kirishish
- notiqlik

- qo‘l ostidagilarga ta’sir o‘tkazish qobiliyati (guruh bilan ishlash)

- muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati (yutuq sari intilish)

Milliy gvardiyaning bo‘lajak ofitserining boshqaruv fazilatlarini rivojlantirish uchun harbiy o‘quv ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

shaxsiy motivatsiyani, yetakchi bo‘lishga doimiy intilishni, o‘ziga ishonchni, qaror qabul qilishga va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorgarligini, maqsadlarga erishishda izchillik va qat’iyatlilikni, o‘z kuchini anglashni, maqsadga erishishga ishonishni rivojlantirish;

individual hamda intellektual va axloqiy boshqaruv fazilatlari tarkibiga kiruvchi kasbiy kompetensiya, odoblilik, analitiklikda namoyon bo‘lgan rivojlangan intellekt, muammoning mohiyatini tez tushunish, aqlning egiluvchanligi, oldindan o‘ylash, rejalashtirish va maqsad qo‘yish qobiliyatlarini rivojlantirish;

komandirning ijtimoiy kompetensiyasini va harbiy jamoa bilan munosabatlardagi xayrixohligini ta’minlash. Bu muloqot madaniyati, o‘z fikrlarini aniq ifodalash, qo‘l ostidagilarni to‘liq tinglash, maslahat berish, boshqa odamlarning qadr-qimmatini hurmat qilish, ularni tushunish, ularning tashvishlari va muammolariga singib ketish va qo‘llab-quvvatlash qobiliyatlarini anglatadi.

Vaziyatni tez va to‘g‘ri baholash, harbiy jamoaning barcha a’zolarining xususiyatlari, qiziqishlari, so‘rovlari va umidlarini bilish va hisobga olish ko‘nikma va malakalarini egallash.

Milliy gvardiyaning bo‘lajak ofitserining boshqaruv fazilatlarini harbiy o‘quv ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida rivojlantirish **umumiy** va **shaxsiy** tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak.

**Umumiy tamoyillar:**

harbiy xizmatchilarni tayyorlashning ijtimoiy shartliligi;

harbiy xizmatchilarni ilmiy tayyorlash;

harbiy xizmatchilarni tayyorlashning amaliy yo‘nalishi va uni hayot bilan bog‘lash;

o‘qitishni ochiqligi;

o‘rganish qiyinligining mavjudligi va tushunarlilik darajasi;

o‘qituvchining yetakchi roli bilan harbiy xizmatchilarning (talabalarning) ongi, faolligi va mustaqilligi;

tizimli, ketma-ket va kompleks o‘qitish;

mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishning kuchliligi, o‘quv natijalarining mustahkamligi va harbiy xizmatchilarning bilimni orttirishini rivojlantirish;

harbiy xizmatchilarni o‘qitishga jamoaviy va individual yondashuv, o‘qitishning jamoaviy (guruh) va individual shakllari va usullarini oqilona uyg‘unlashtirish;

harbiy xizmatchilarni o‘qitishning insonparvarlik, tarbiyaviy va rivojlantirishga qaratilgan xarakteri.

**Shaxsiy tamoyillari:**

boshqaruv ta’limi va o‘z -o‘zini rivojlantirishning yagona jarayon sifatida uzluksizligi, xizmatda rasmiy ta’lim va o‘z-o‘zini tayyorlashning uyg‘unligi va almashinishi;

komandirning barcha asosiy rollarini bajarish uchun muhim bo‘lgan kasbiy fazilatlarni rivojlantirishga e’tibor qaratish - ijrochi, boshqaruvchi, ijodkor va yetakchi;

intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish ustuvorligi, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo‘llarini topish, noaniqlik sharoitida savollar berish;

O‘qitishni rivojlanishi boshqaruvni fikrlash usullarini, boshqaruv nuqtai nazarini izlanishiga qaratilganligi;

milliy gvardiya rivojlanishining hozirgi bosqichi uchun dolzarb bo‘lgan jangovar shaylikni saqlashning real va o‘quv holatidagi muammolari bo‘yicha intellektual ko‘nikmalar va boshqaruv nuqtai nazarini rivojlantirish [8].

Milliy gvardiya ofitserlarining boshqaruv fazilatlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yuqoridagi vazifa va tamoyillardan kelib chiqqan holda, harbiy o‘quv ta’lim muassasalari o‘quv jarayoni quyidagi funksiyalarni bajarishi kerak:

aksiologik (har bir kursant shaxsining ma’naviy-axloqiy sohasini yaxshilash zarurati; boshqalar bilan axloqiy, bag‘rikenglik asosida munosabatlarni o‘rnatish qobiliyati) Milliy gvardiya qo‘mondoning buyruqlari va ko‘rsatmalari asos bo‘ladi;

protsessual (rahbarlik faoliyatining maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, usullari, shakllari va xususiyatlarini bilish);

kognitiv (bilim, ko‘nikmalarni doimiy ravishda takomillashtirish zarurati, ijodiy fikrlashning mavjudligi);

regulyativ-boshqaruv (insonning o‘z-o‘zini rivojlantirishning ichki kuchlarini yangilash, shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirishning aniq yo‘nalishlarini asoslash, o‘z-o‘zini bilish, fikrlash qobiliyati).

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi oldida turgan xizmat va jangovar vazifalarni zamonaviy sharoitda muvaffaqiyatli va samarali hal etish uchun ofitser o‘ziga bo‘ysunuvchi shaxsiy tarkibga boshqaruvchi-ofitser timsolida rahbarlik qilishi shart. Shunda u "odamdan odamga" tizimida boshqaruvning demokratik ustuvorliklariga yo‘naltirilgan, o‘z boshqaruv bilimlari va ko‘nikmalarini yangilash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir, o‘zgaruvchan ijtimoiy va harbiy voqelikni mustaqil ravishda yo‘naltira oladigan, uni haqqoniy baholay oladigan, o‘ylangan va oqilona qarorlarni qabul qilishga ko‘nikmasi yetarli, harbiy jamoalarni boshqarish uchun zamonaviy taktika va strategiya saboqlariga ega bo‘lgan ofitser bo‘lishi lozim. Uning roli esa - bu bo‘ysunuvchilarni orqasidan ergashtirish, bo‘ysunuvchilar o‘rtasida tizimda yagona maqsad doirasida aniq vazifalarni hal qilishga yordam beradigan aloqalarni mavjudligini ta’minlash.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi bo‘lajak ofitserlarining boshqaruv fazilatlarini maqsadli rivojlantirish, ularning kasbiy tayyorgarligi samaradorligini, boshqaruv faoliyatiga motivatsion va amaliy tayyorgarligini, o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘z-o‘zini anglash zarurligini sezilarli darajada oshiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. ”Халқ сўзи” газетаси. 14.01.2022 йил. 9-сони (8071).1-бет

2. Коровин Ю.Н. Особенности управленческой деятельности офицеров войск национальной гвардии Российской Федерации // Научное мнение. 2018. № 5. С. 36-41.

3. Кричевский Р.Л. Если Вы – руководитель. Элементы психологии менеджмента в повседневной работе. – 2-е изд., доп. и перераб. М, 1996 С.63 - 68

4. Ашихмин А.Н. Развитие профессиональных лидерских качеств у курсантов вузов МВД России средствами физической подготовки и спорта. Диссертация кандидата педагогических наук, 2006

5. Лукьянчиков Э.Е. Становление лидерских качеств личности в системе высшего военного профессионального образования. Диссертация кандидата педагогических наук, 2003

6. Маслянов Н.Н. Психолого – педагогические условия развития готовности курсантов к лидерству. Диссертация кандидата педагогических наук, 2001

7. Скрыпников О.И. Психолого – педагогические условия формирования качеств лидера у курсантов военных институтов. Диссертация кандидата педагогических наук, 1999

8. Военная дидактика: Учебник – 2-е изд., переработ./ Под общей ред. В.Г. Михайловского. – М.: ИД «Куприянова», 2010. С 503.

**Boybutayev J.J., Ashurov R.N. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya bo‘lajak ofitserlarida boshqaruv fazilatlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi ofitserining xizmat va jangovar faoliyati boshqaruv fazilatlarining o‘ziga xos xususiyatlari, dunyo olimlarining

zamonaviy ofitserning boshqaruv fazilatlariga qo‘yilgan talablari bo‘yicha fikrlari hamda Milliy gvardiyaning bo‘lajak ofitserining boshqaruv fazilatlarini harbiy o‘quv ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida rivojlantirish umumiy va shaxsiy tamoyillar asosida amalga oshirilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy ta’lim tizimi, Qurolli Kuchlar, harbiy o‘quv ta’lim muassasasi, boshqaruv faoliyati, ofitser, fazilatlar.

**Бойбутаев Ж.Ж., Ашуров Р.Н. Актуальные вопросы развития управленческих качеств будущих офицеров Национальной гвардии Республики Узбекистан**

В статье приведены специфические характеристики управленческих качеств офицера Национальной гвардии Республики Узбекистан, проанализирован опыт учёных мира относительно требований, предъявляемых в современой системе управления, к качествам офицера, указаны пути развития управленческих качеств офицеров Национальной гвардии с учётом общих и личных принципов в процессе обучения в военно-учебных заведениях.

Ключевые слова: система военного образования, Вооруженные Силы, военно-учебное заведение, управленческая деятельность, офицер, качество.

**Boybutayev J.J., Ashurov R.N. Current issues of development of management qualities in future officers of the National Guard of the Republic of Uzbekistan**

This article describes the specific characteristics of the managerial qualities of an officer of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, the opinions of world scientists on the requirements for the qualities of a modern managerial officer, the development of the managerial qualities of a future officer of the National Guard in the educational process of military educational institutions on general and personal principles.

Key words: military education system, Armed Forces, military educational institution, managerial activity, officer, qualities.

**Mirzayev Gulom Rizoqulovich,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

# YANGI O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI BILAN HAMKORLIGINING RIVOJLANISH TENDENSIYASI

“Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. ... Azal-azaldan o‘zaro qardosh va birodar bo‘lgan mamlakatlarimiz ko‘pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi.

Jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi degan ibora paydo bo‘ldi” [13.].

*Shavkat Mirziyoyev*

**Kirish.** Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligi bugungi kunga kelib sifat jihatdan yuqori bosqichga ko‘tarildi. Mintaqa davlatlarining o‘zaro manfaatli hamkorligining rivojlanish tendensiyasi o‘ziga xususiyatlar bilan mustahkamlanib bormoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan yaqin do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratib, o‘tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o‘rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O‘zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi [13.].

Darhaqiqat, qisqa fursatda Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatidagi tub burilish yasaldi. “Avvalo, mintaqamizdagi davlatlar bilan do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari yo‘lga qo‘yildi. Chegaralar ochildi, odamlar qavm-u qarindoshlari bilan aloqalarini tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi” [2.].

**Tadqiqot maqsadi.** Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasini tadqiq etish.

**Tadqiqotning obyekti sifatida** Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi olingan.

**Tadqiqotning usullari.** Maqolada fanlararo, tarixiylik tamoyili, muammoviy-xronologik, qiyosiy tahlil, tizimli va tizimli-xronologik tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

**Asosiy qism.** Tarix fani, xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatga oid yo‘nalishlar oldida turgan konseptual yondashuvdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatida Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari bilan teng huquqli hamkorlik aloqalariga doir masalalarni ilmiy jihatdan tadqiq va tahlil etish jarayoniga bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ta’kidlash joizki, hozirgi paytda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy mamlakatlari bilan diplomatik aloqalari yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘tgan davr mobaynida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘zlarining mustaqil taraqqiyot yo‘liga ega bo‘ldi va rivojlanayotgan davlatlar safiga kirib, insonparvarlik, ijtimoiy adolat, mintaqada xavfsizlik, millatlararo totuvlik, tinchlik va osoyishtalik muhitini yaratish kabi xalqaro huquq tamoyillari asosida tashqi siyosiy faoliyati va xalqaro hamkorliklarini yo‘lga qo‘ydi hamda izchil rivojlantirib bormoqda. Shuningdek, dunyoda globallashuv jarayoni sodir bo‘layotgan sharoitda mintaqa mamlakatlari o‘z mustaqilligini mustahkamlash sari intilib, jahon hamjamiyatida munosib o‘rnini egallashga intilarkan, mazkur mamlakatlarning hamkorlik doirasida

mintaqada xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qo‘shayotgan hissasini, yaqin qo‘shnichilik hamda do‘stona aloqalarini aniqlash va tadqiq etish bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning hukumat tepasiga kelishi va ilk xorijiy mamlakatlarga ilk tashrifini Markaziy Osiyo mamlakatlariga tashrifdan boshlaganligi tom ma’noda mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘targanligidan dalolat beradi.

2017 yil 6-7 mart kunlari Sh.M.Mirziyoyev Turkmaniston Prezidentining taklifiga binoan davlat tashrifi bilan Turkmanistonda bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, bu Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida xorijiy davlatga ilk tashrifi sifatida baholandi [15.]. Prezidentimizning mazkur davlat tashrifi O‘zbekiston tashqi siyosatda yaxshi qo‘shnichilik munosabatlariga alohida ahamiyat qaratayotganini yaqqol tasdiqlab, O‘zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o‘rtasida strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma imzolanishi bilan mustahkamlandi [7, 260.].

Shuningdek, Xorazm viloyati bilan Dashovuz viloyati, Buxoro viloyati bilan Lebap viloyati hokimliklari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlik to‘g‘risida bitimlar imzolanganligi davlatlararo huquqiy asoslari rivojida yangi davr boshlanganligidan dalolat beradi [7, 260. ].

2018 yilning 23 aprel kuni Prezident Sh.Mirziyoyevning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga keldi. Tashrif doirasida ikki davlat rahbarlari turli sohalardagi o‘zaro hamkorlikning istiqbollarini muhokama qildilar hamda Qo‘shma bayonot imzoladilar. Tashrif yakuniga ko‘ra, ikki tomonlama hamkorlikni siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya, ta’lim va sport sohalarida yanada mustahkamlashga va o‘zaro aloqalarni izchil rivojlantirishga doir 17 ta hujjat imzolandi. Shuningdek, oliy o‘quv yurtlari o‘rtasida va axborot-kommunikatsiya sohalariga oid 15 ta hujjat ham imzolandi [14, 10.]. Qardosh mamlakatlar madaniy-gumanitar aloqalari yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. 2017 yil may oyida Toshkentda Maxtumquli nomidagi ko‘cha va unga bag‘ishlangan me’moriy yodgorlik ochildi. 2018 yil aprel oyida Turkmaniston Prezidenti G.Berdimuhamedovning O‘zbekistonga tashrifi sharafiga Toshkentda “Ashxobod” sayilgohi, Xorazm viloyatida “O‘zbek-turkman do‘stlik uyi” va “Ulli hovli majmuasi ochilganligi xalqlarimiz do‘stligi, ahilligi va madaniy yaqinligining yana bir yorqin namunasi bo‘ldi [6.].

2022 yil 14-15 iyul kunlari Turkmanistonning 2022 yil mart oyida saylangan yangi Prezidenti Serdar Berdimuhamedovning O‘zbekistonga amalga oshirgan davlat tashrifi ikki mamlakat xalqlarining ko‘p asrlik qardoshlik tarixida muhim bosqichni boshlab berdi. Boisi, ikki mamlakat vazirlik va idoralari rahbarlari tomonidan imzolangan 19 ta hujjat hamkorlikning qator istiqbolli yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lib amaliy sheriklikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi [12.].

2017 yil 23 martda Shavkat Mirziyoyevning Qozog‘istonga tashrifi va ikki mamlakat o‘rtasida strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish va ahil qo‘shnichilikni mustahkamlash to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzolanishi davlatlararo hamkorlikda yangi davrni boshlab berdi. O‘zbekiston va Qozog‘istonning 2017 yili birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmini 2 milliard AQSh dollariga yetkazishga muvaffaq bo‘lindi. Shuningdek, Jizzax, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari va Toshkent shahri delegatsiyalari qo‘shni davlatga borib, juda samarali uchrashuvlar o‘tkazdi. O‘z navbatida, Janubiy Qozog‘iston, Qo‘stanay, Jambil, Qizilo‘rda, Sharqiy Qozog‘iston viloyatlari vakillari o‘zbek zaminida bo‘ldi. Bunday to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalar ikki va ko‘p tomonlama hamkorlikning samarali amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qilmoqda [9.].

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi aloqalarning yangi tarixida 2016 yil dekabr

oyida Samarqand shahrida O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlarining bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvi o'zaro aloqalarning tayanch nuqtasi vazifasini o'tadi.

2017 yil 5-6 sentabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qirg'iziston Respublikasiga amalga oshirgan davlat tashrifidagi muloqotlarga Samarqand uchrashuvi debocha vazifasini o'tab, olib borilgan muzokaralar esa "Samarqand uchrashuvi ruhi" asosida davom ettirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi bilan Qirg'iziston Respublikasi o'rtasida strategik sheriklik, do'stlik, ahil qo'shnichilik va ishonchni mustahkamlash to'g'risida deklaratsiya imzolandi.

Qozog'istonda O'zbekiston yilining va O'zbekistonda Qozog'iston yilining o'tkazilishi, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston madaniyat kunlari va qo'shma do'stlik konsertlari, festivallari, ko'rgazmalari, shuningdek, insonlar ma'naviy olamining birlashuvini belgilab beruvchi tadbirlarning buning yorqin misolidir.

2017 yil 18 oktabrida O'zbekiston Milliy universitetida qirg'iz xalqining atoqli adibi Chingiz Aytmatov hayoti va ijodiga bag'ishlangan ko'rgazma tashkil etildi [8.] va 2018 yil ushbu ijodkorning tanlangan asarlari nashr etildi [1, 413.].

2017 yil 17 noyabr kuni esa, Bishkekda O'zbekistonning atoqli davlat arbobi va yozuvchisi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligiga bag'ishlangan "Ulug' siymo va zamon" ko'rgazmasi tashkil qilindi[8.].

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2021 yil 6 avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi doirasida Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov bilan muzokara o'tkazdi. O'zbekiston Prezidenti Sadir Japarovni ilk bor Maslahat uchrashuvida ishtirok etayotgani bilan qutlab, bu ko'p tomonlama "muloqot maydoni" mintaqamiz farovonligi yo'lida mamlakatlarimiz sa'y-harakatlarini birlashtirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratishini ta'kidladi. Uchrashuvda, 2021 yil 11-12 mart kunlari Qirg'iz Respublikasi Prezidentining O'zbekistonga davlat tashrifi chog'ida erishilgan kelishuvlar ijrosining borishi batafsil muhokama qilindi. 2021 yilning boshidan buyon tovar ayirboshlash hajmi qariyb 10 foizga ortib, 425 million dollardan oshgani, iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarida, xususan sanoat, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish bo'yicha amaliy ishlar boshlab yuborilganligi ta'kidlandi. Energetika sohasidagi hamkorlik, xususan, Qambarota-1 gidroelektr stansiyasini birgalikda qurish masalalari ham ko'rib chiqildi. Davlatimiz rahbari "O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy" temir yo'li strategik ahamiyatga ega ekani, uni qurish bo'yicha muzokaralarni jadallashtirish muhimligini ta'kidladi. Qirg'iziston Prezidenti O'zbekistonning mintaqada samarali va o'zaro manfaatli hamkorlikni mustahkamlash borasidagi amaliy sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlab, O'zbekiston rahbarining Markaziy va Janubiy Osiyo hamkorligini rivojlantirish borasidagi tashabbuslari mintaqamizning qardosh xalqlari manfaatlariga xizmat qilishini ta'kidladi [20.].

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aylanmasi misli ko'rilmagan darajada o'sganligining guvohi bo'lamiz. Savdo aylanmasi 2017 yilda 2,4 milliard dollarni tashkil qilgan bo'lsa, 2019 yil yakuniga kelib, 5,2 milliard dollarga yetgan. Qisqa ikki yil ichida o'sish 150 foizni tashkil etgan [4.]. Pandemiya oqibatida yuzaga kelgan cheklovlarga qaramay 2020 yilda Markaziy Osiyoda kuzatilgan yuk tashish hajmining o'sganligi xalqaro avtomobil va temir yo'llarni yanada kengaytirish va transport-logistika infratuzilmasini mustahkamlashning ulkan salohiyatidan dalolat beradi. Shu munosabat bilan 2021 yil 6 avgustda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 3-Maslahat uchrashuvi doirasida «Avaza» Milliy turistik zonasida (Turkmaniston) bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy

forumida [16.] O‘zbekiston tomoni Markaziy Osiyo davlatlarini bog‘lovchi transport yo‘laklarini rivojlantirish, mintaqa mamlakatlarining tranzit salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, bojxona rasmiylashtiruvi tartiblarini uyg‘unlashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha hamkorlikni kuchaytirish taklifini bildirganligini alohida ta’kidlash joiz.

Markaziy Osiyoda siyosiy ishonch va o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash bo‘yicha O‘zbekiston Prezidentining yangi siyosatini hayotga joriy etilishi 2018 yilda ham izchil davom ettirildi. Jumladan, Prezident Sh.Mirziyoyev Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmonning taklifiga binoan 2018 yilning 9-10 mart kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi. Tashrif davomida ikki davlat rahbarlari Do‘stlik va yaxshi qo‘shnilikni mustahkamlash to‘g‘risida Qo‘shma bayonot hamda O‘zbekiston-Tojikiston davlat chegarasining alohida uchastkalari to‘g‘risidagi shartnomani imzoladilar [5, 68. ].

2018 yilning 17-18 avgust kunlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti E.Rahmon O‘zbekistonda davlat tashrifi bilan bo‘ldi. Tashrif natijasida O‘zbekiston Respublikasi bilan Tojikiston Respublikasi o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma hamda ikki davlat rahbarlarining Qo‘shma bayonoti imzolandi. Surxondaryo viloyati bilan Xatlon viloyati, Samarqand viloyati bilan So‘g‘d viloyati o‘rtasida savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy-gumanitar hamkorlik to‘g‘risida bitimlar ham qabul qilindi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasining qo‘shni mamlakatlar bilan davlat chegarasini delimitatsiya va demarkatsiya qilish borasidagi muzokaralarni davom ettirishi natijasida Qozog‘iston bilan davlat chegarasi chiziqlarini delimitatsiya qilish ishlari yakunlandi, Qirg‘iziston bilan chegaraning 85 foiz uchastkasi kelishildi, Tojikiston bilan chegaraning 99,9 foiz uchastkasi kelishildi [14, 12.].

2021 yil yakuniga ko‘ra, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi qariyb 600 million AQSh dollarini tashkil etdi. Qo‘shma korxonalar soni 10 barobar o‘sdi. Agar 2017 yilda O‘zbekistonda 24 ta korxona faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2021 yil oxiriga kelib Tojikiston kapitali ishtirokida 240 ta korxona ishlay boshladi. Tojikistonda O‘zbekiston sarmoyasi asosida 61 ta korxona faoliyat ko‘rsatmoqda [10.].

O‘zbekiston Prezidenti shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan 2022 yil 2-3 iyun kunlari Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon rasmiy tashrif bilan O‘zbekistonda bo‘ldi. Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon tarixiy ahamiyatga ega “Abadiy do‘stlikni mustahkamlash va ittifoqchilik to‘g‘risida”gi deklaratsiyani imzoladilar. Bundan tashqari, hukumatlar, vazirlik va idoralar darajasida imzolangan 11 ta hujjat ko‘p qirrali O‘zbekiston – Tojikiston hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarishga xizmat qiladi [11.].

Ta’kidlash joizki, “so‘nggi yillarda mamlakatimizda kechayotgan tub yangilanishlar, izchil va faol tashqi siyosat, ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasidagi yaqin qo‘shnichilik muhiti tobora mustahkamlanayotgani yurtimizning xalqaro nufuzini yanada oshirmoqda” [3, 330.].

2017 noyabr oyida Samarqandda BMT shafeligida o‘tkazilgan “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusidagi xalqaro konferensiyada O‘zbekiston rahbari Markaziy Osiyoga oid dolzarb masalalar bo‘yicha mintaqa mamlakatlarining sa’y-harakatlarini birlashtirish, buning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini muntazam yo‘lga qo‘yish taklifini ilgari surdi. Ushbu tashabbusga binoan birinchi Maslahat uchrashuvi Qozog‘istonda, ikkinchi Maslahat uchrashuvi 2019 yil noyabrda Toshkentda, uchinchi Maslahat uchrashuvi 2021 yil avgustda Ashxobodda bo‘lib o‘tganligi Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligini mustahkamlash borasida

ilgari surgan taklifining amaliy ifodasidir.

2022 yil 20-21 iyul kunlari O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining to‘rtinchi maslahat uchrashuvida so‘zga chiqib, Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasiga xizmat qiluvchi bir qator takliflarni ilgari surdi:

- Markaziy Osiyoda tovarlarni yetkazib berishning yagona va soddalashtirilgan tartib-qoidalariga ega bo‘lgan chegara savdo zonalari tizimini yaratish;
- har yili Markaziy Osiyo mintaqalari forumi o‘tkazilishini yo‘lga qo‘yish;
- Hindiston, Pokiston va Xitoy bozorlariga chiqish uchun muqobil transport yo‘laklarini ilgari surish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish;
- aholini keng nomenklaturadagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlashning kompleks sxemasini birgalikda ishlab chiqish;
- Markaziy Osiyo madaniyat, san’at va kino festivalini mamlakatlarda navbatma-navbat o‘tkazish;
- o‘zaro turistik oqimlarni ko‘paytirish bo‘yicha aniq takliflar tayyorlash uchun qo‘shma ekspertlar guruhini tashkil etish;
- yoshlar siyosatining umumiy yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘p tomonlama shartnomani tayyorlash [17.].

Darhaqiqat, Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi xususida ko‘plab xorijlik ekspertlar tomonidan bildirilayotgan yuksak e’tiroflarni shu o‘rinda keltirib o‘tish joizdir. Jumladan, Xitoy Davlat Kengashi huzuridagi Yevropa va Osiyo ijtimoiy taraqqiyot instituti direktori Li Yunsyuan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi borasida o‘z fikr-mulohaza va baholarini bildirar ekan, jumladan, shunday deydi: “ – *O‘zbekiston mintaqaviy va mintaqalararo hamkorlikni mustahkamlash jarayonlarining faol ishtirokchisi bo‘lib, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmida, mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashning dolzarb masalalari bo‘yicha hamkorlik samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston tashqi siyosatidagi yondashuvlarning alohida ahamiyati shundaki, ular butun mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik belbog‘ini mustahkamlashga qaratilgan. O‘zbekiston mintaqada inklyuziv rivojlanish tamoyillariga amal qilishi, o‘z taraqqiyotini boshqa mamlakatlardan ayricha ko‘rmasligi alohida e’tiborga loyiq. Mintaqaviy va global xavfsizlik, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi uchun xavf-xatar kuchayib borayotgan bir sharoitda bunday siyosat benihoya muhim ahamiyat kasb etadi* [18.].

O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari Bosh vazirlari o‘rinbosarlari ishtirokida 2019 yilning 15 mart kuni Toshkent shahrida birinchi Markaziy Osiyo iqtisodiy forumi o‘tkazildi. Forumda mintaqaviy hamkorlikni yanada rivojlantirish, transport-kommunikatsiya majmuasi imkoniyatlarini o‘rganish, o‘zaro savdo hajmi hamda turizm jozibadorligini oshirish masalalari muhokama qilinib ijobiy natijalarga erishildi [14, 23-24.].

Shuningdek, O‘zbekiston tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari xalqlari orasida ahil qo‘shnichilik hamda millatlararo totuvlikni ta’minlash maqsadida 2019 yilning 15 noyabr kuni Toshkent shahrida xorijiy mamlakatlar ekspertlari va olimlari ishtirokida “Markaziy Osiyo – umumiy uyimiz” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Yangi O‘zbekistonning millatlararo totuvlik siyosati Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligida muhim omil sanaladi. O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman milliy madaniyat markazlari fikrimiz tasdig‘idir. Darhaqiqat, jamiyatda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik muhitini mustahkamlashga qaratilgan ishlarni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2021 yil 10 fevralda qabul qilingan qonunga asosan O‘zbekistonda 30 iyul sanasi Xalqlar do‘stligi kuni sifatida 2021 yil ilk bora keng ko‘lamda

nishonlanishi ko‘p millatli xalqqa bo‘lgan buyuk ehtiromdir!

Joriy yil mazkur sanani munosib nishonlash maqsadida Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi tomonidan qator hamkor tashkilotlar bilan birga yurtimizda 30 iyul – 7 avgust kunlari Do‘stlik festivali o‘tkazildi. Festival doirasida 5 avgust kuni Toshkentda “Markaziy Osiyo davlatlarida millatlararo totuvlikni ta’minlash” mavzusidagi xalqaro konferensiya tashkil qilindi. Konferensiyada Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston davlatlaridan yuqori martabali shaxslar, yetakchi ekspertlar, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari mutaxassislari o‘z ma’ruzalari bilan qatnashdilar.

Konferensiyada Markaziy Osiyo mamlakatlarining millatlararo totuvlikni ta’minlash borasidagi axborot va ilmiy salohiyatini birlashtirish, madaniyatlarini namoyish etish va yaqinlashtirish, shuningdek kelgusida Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida o‘zaro faol va mustahkam yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, ishonch muhitini saqlashga hamda O‘zbekistonda xalq diplomatiyasi asosida chet eldagi vatandoshlarimiz bilan muntazam munosabatlarni yo‘lga qo‘yish, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona munosabatlar va madaniy-ma’rifiy aloqalarni mustahkamlash orqali O‘zbekistonda yashab kelayotgan barcha millat va elat vakillarining tarixi, madaniyati, ma’naviy qadriyatlari, milliy an’analari va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi [19. ].

**Xulosa.** Mintaqada iqtisodiy va madaniy almashinuvlar ko‘lamini kengaytirish, odamlarning borish-kelishlarini ko‘paytirish, savdo-iqtisodiy aloqalarning “o‘sish nuqtalari”ni aniqlash va turizm aloqalarini rivojlantirish maqsadida Davlat chegarasini kesib o‘tishda qulay sharoitlar yaratish Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan keng qamrovli hamkorligining bugungi holatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv esa, yurtimiz atrofida “farovonlik kamari”ni shakllantirish orqali mintaqada barqarorlikni yanada mustahkamlash, xalqlarimiz uchun munosib turmush sharoitlarini yaratish hamda mamlakatlar hamkorligining istiqboli barqaror sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan iqtisodiy hamkorligini yanada rivojlantirish va mustahkamlash borasida bir qator takliflarni ilgari surish mumkin:

- O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligiga doir muntazam ravishda huquqiy normativ hujjatlar monitoringini olib borish;

- Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan iqtisodiy hamkorligini yanada mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirishda transport-tranzit salohiyatini jadal rivojlantirish, madaniy-gumanitar hamkorligini yanada mustahkamlash, kengaytirish va chuqurlashtirishga, milliy-etnik, do‘stlik va birodarlik jarayonlarini mustahkamlovchi ichki va tashqi omillar bilan muntazam shug‘ullanuvchi va yechimini topuvchi tahliliy-axborot guruhini shakllantirish;

- mintaqa mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy va madaniy-gumanitar hamkorligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi transchegaraviy daryo va anklav hududlar masalasida hamjihatlikni saqlab turuvchi chegaradosh hududlarda qo‘shma iqtisodiy loyihalar va milliy madaniy markazlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Muxtasar qilib aytganda, shubhasiz, Yangi O‘zbekiston o‘zining tashqi siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishi – Markaziy Osiyo mintaqasida do‘stona va yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash orqali mintaqada farovonlik, tinchlik va xavfsizlikni ta’minlashga munosib hissa qo‘shadi. Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi doirasida mintaqada siyosat, savdo, investitsiya, sanoat, transport, ekologiya, energetika, mintaqaviy xavfsizlikni

ta’minlash, zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarga birgalikda qarshi kurashishda davlatlararo hamkorlikning bugungi holatidan kelib chiqib muntazam ravishda istiqbolli “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqiladi va hayotga tatbiq etiladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar


1. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018. – 413.
2. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз мустақиллиги – биз учун куч-қудрат ва илҳом манбаи, тараққиёт ва фаровонлик асоси. // Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси давлат мустақиллигининг 30 йиллик байрамига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2021 йил 1 сентябрь сони.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2021. – 464 б.
4. Мустафоев Б.Р. Ўзбекистоннинг Марказий Осиёдаги савдо айланмаси мисли кўрилмаган даражада ўсган. // https://kun.uz/91055693.
5. Рахимов М.А. Современная история и международные отношения Узбекистана. – Т.: Фан, 2020. – С.68.
6. “Туркманистон Президенти Гурбангули Бердимуҳамедовнинг Ўзбекистон Президентига мактуби”дан. // “Халқ сўзи”, 2021 йил 25 февраль. №40 (7820).
7. Хабарнома. Ўзбекистон Республикаси Президенти Девонининг нашри. – Т.: 2017. – № 1. – Б. 260.
8. Халқ сўзи. – 2017 йил 12 декабрь.
9. Халқ сўзи. – 2018 йил – 14 март.
10. Халқ сўзи газетаси. 2022 йил 1 июнь.
11. Халқ сўзи газетаси. 2022 йил 3 июнь.
12. Янги Ўзбекистон газетаси. 2022 йил 16 июль.
13. Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда. // Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг жаволларига жавоблари. “Янги Ўзбекистон” газетаси 2021 йил 17 август.
14. Ҳаракатлар стратегияси ва унинг доирасида қабул қилинган Давлат дастурларининг ташқи сиёсат ва ташқи иқтисодий сиёсат соҳаларида. 2017 – 2020 йилларда амалга оширилган ислоҳотлар сарҳисоби. (strategy.uz). 2020.
15. http://turkmenistan.gov.tm/?id=13092 (Мурожаат этилган сана: 06.03.2017.).
16. https://yuz.uz/news/markaziy-osiyo-mamlakatlari-iqtisodiy-forumi--kop-tomonlama-hamkorlik-uchun-makon?view=ozbekiston-mahsulotlari-turkmanistonda-made-in-uzbekistan-korgazmasida-namoyish-etildi (Мурожаат этилган сана: 8.08.2021.).
17. https://yuz.uz/ru/news/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-markaziy-osiyo-davlatlari-rahbarlarining-tortinchi-maslahat-uchrashuvidagi-nutqi (Мурожаат этилган сана:22.07.2022.).
18. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi-xitoy-ekspertlari-nigohida?view=sotsiologik-tadqiqotlar--davr-talabi (Мурожаат этилган сана: 24.07.2022.).
19. https://interkomitet.uz/bosh-sahifa-kir/markazij-osiyo-davlatlarida-millatlararo-totuvlikni-taminlash-mavzusidagi-hal%D2%9Baro-konferencziya/?lang=oz (Мурожаат этилган сана: 6.08.2022.).
20. https://yuz.uz/news/qardosh-xalqlarning-mushtarak-madaniyati-ifodasi?view=ozbekiston-va-qirgiziston-prezidentlari-uchrashdi ( Мурожаат этилган сана: 7.08.2021.).

**Mirzayev G.R. Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi**

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorligining rivojlanish tendensiyasi haqida so‘z yuritiladi. Xususan, mintaqaviy hamkorlikni yangicha ruhda rivojlantirish va mustahkamlashda Yangi O‘zbekiston tashabbusi va ishtiroki qiyosiy tahlil etilgan. Muallif tomonidan Yangi O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga doir turli formatdagi uchrashuvlar Maslahatlashuv Kengashlari misolida tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, “Samarqand uchrashuvi ruhi”, Maslahatlashuv Kengashi, hamkorlik, tendensiya, mintaqaviy hamkorlik, mintaqalararo hamkorlik, chegara savdo zonalari, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiya.

**Мирзаев Г.Р. Тенденции развития сотрудничества Нового Узбекистана со странами Центральной Азии**

В статье приведены тенденции развития сотрудничества Нового Узбекистана со странами Центральной Азии. Проанализированы инициативы и участие Нового Узбекистана в развитии и укреплении регионального сотрудничества с точки зрения современных подходов. Автором исследовано разнообазие формата встреч по укреплению двустороннего и многостороннего сотрудничества между Новым Узбекистаном и странами Центральной Азии на примере Консультативных советов.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, «Дух Самаркандской встречи», Консультативный совет, сотрудничество, тренд, региональное сотрудничество, межрегиональное сотрудничество, приграничные торговые зоны, торгово-экономические, инвестиционные, транспортно-коммуникационные.

**Mirzayev G.R. Trends of development of cooperation of the New Uzbekistan with the countries of Central Asia**

This article talks about the trend in the development of cooperation between New Uzbekistan and the countries of Central Asia. In particular, the initiative and participation of New Uzbekistan in the development and strengthening of regional cooperation in a new spirit is analyzed comparatively. The author explored various formats of meetings to strengthen bilateral and multilateral cooperation between New Uzbekistan and the countries of Central Asia using the example of the Advisory Councils.

Key words: New Uzbekistan, "The Spirit of the Samarkand Meeting", Advisory Council, cooperation, trend, regional cooperation, interregional cooperation, border trade zones, trade and economic, investment, transport and communication.

**Алимова Гузал Алишеровна,**
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент кафедры «Экономических наук»
университета Общественной безопасности Республики Узбекистан

# РАЗВИТИЕ ВОЕННО-РЕКРЕАЦИОННЫХ ТЕРРИТОРИЙ КАК ФАКТОР УКРЕПЛЕНИЯ ВОЕННОЙ МОЩИ НЕЗАВИСИМОГО УЗБЕКИСТАНА

Распад СССР и суверенное развитие Узбекистана сопровождалось переосмыслением путей развития всех секторов экономики государства. В свою очередь изучение возможностей применения механизмов, апробированных и широко применяемых в развитых странах, стало объективной необходимостью. Нужно отметить, что использование территориальных возможностей Узбекистана стало осуществляться на основе новых подходов, которые предполагали комплексное их развитие с учётом эффективности использования, и социально-экологической стабильности территорий в целом. Именно поэтому на первых порах становления новой региональной политики, Узбекистан столкнулся с рядом проблем, которые являлись на том этапе развития естественными.[5] Появилась необходимость изучения опыта стран, успешно решивших перечисленные выше проблемы.

Перечислим эти проблемы:

-появление депрессивных территорий;

-потребность освоения слаборазвитых территорий;

-совершенствование территориальной организации жизнедеятельности людей;

-обострение экологической обстановки в отдельных регионах страны;

-модернизация сельскохозяйственного производства;

-развитие малого и среднего бизнеса и др.

Одним из приоритетных направлений по устранению названых проблем стала рекреационно-туристская деятельность.

Сегодня рекреационно-туристский сектор рассматривается как неотъемлемая часть регионального развития, требующая особого внимания и государственной поддержки. Именно поэтому в Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 гг., и в Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг. отдельное внимание уделено комплексному развитию регионов страны, оптимальному и эффективному использованию их потенциала, где особое внимание уделено развитию туризма. [1], [2]

Стратегические задачи по развитию рекреационно-туристской деятельности предполагают ускоренную диверсификацию данной сферы. Необходимо отметить, что «военная рекреация» в структуре рекреационной деятельности Узбекистана на сеодняшний день изучена крайне мало и требует научного переосмысления методов и способов развития этой сферы. Необходимость развития военной рекреации определяет тот факт, что она напрямую и косвенно связана с уровнем развития Вооружённых сил, социальной стабильностью, ростом среди населения патриотизма и с развитием военной науки в нашей стране.

Современная военная наука в условиях лёкого доступа к многообразию информации, предоставляемой сетью всемирной паутины, развивается под угрозой информационной агрессии, открывающей возможность идейного и идеологического разложения общества страны. [5],[6],[8]

Военная наука сегодняшнего дня не

может игнорировать идеологические аспекты в определении и устранении агрессии, при этом, по-нашему мнению, необходимо уделить особое внимание молодому поколению. Действительно, от того, как мы воспитаем “новых членов нашего общества”, от уровня их патриотизма, преданности Родине, знаний истории, твёрдости их взглядов и цельности мировозрения, будет зависеть будущее всего Узбекистана, так как никакоё оружие не сможет сломить волю человека, воспитанного в любви и уважении к своему народу и государству. [9]

Исследования в области военных наук по подготовке военнослужащих и сотрудников системы вооружённых сил, а также правоохранительных органов силовых структур и лиц из числа гражданского населения должны проводиться с учётом перечисленых факторов.

Эффективность подобной подготовки повышается, если она осуществляется в рамках развития военно-рекреационной индустрии. В свою очередь, развитие данной индустрии предполагает проведение серьёзных и комплексных исследований по определению, выявлению и повышению аттрактивности военно-рекреационных территорий с большим потенциалом при рациональнальном использовании экономического и природно-ресурсного запаса данных территорий. [11] При этом, развитие военно-рекреационных территорий не должно вступать в противоречие с основной специализацией региона, а наоборот военная рекреация должна стать ресурсом, способствующим диверсификации отраслей экономики региона.

Отсутствие единых критериев является одним из проблемных аспектов анализа и оценки военно-рекреационных территорий, их природно-экономического потенциала.

Для решения этой проблемы в качестве базовых индикаторов были взяты следующие показатели:

- производственный потенциал;
- научно-технический потенциал;
- природно-ресурсный потенциал;
- материально-техническая база и др.

Мощным рычагом развития межотраслевых связей и повышения валового регионального продукта может стать гармоничное развитие ВРТ деятельности.




**Рис.1. Структура и компоненты природного и экономического потенциала территории**

Иллюстрационный материал №1 ярко демонстрирует, что в структуре экономического потенциала ведущее место занимают ресурсы: материальные, трудовые, организационные, научно-образовательные, финансовые, информационные. В структуре природно-ресурсного потенциала региона основным фактором является наличие, количество и богатство природных ресурсов, а также их расположение.

Однако при экономической оценке военно-рекреационных ресурсов необходимо учитывать:

- географическое расположение;
- ландшафт;
- исторические события на данной территории;
- экологические особенности территории (виды экосистем региона);
- природные ресурсы территории;
- наличие необходимых материальных ресурсов.




**Рис.2. Классификация рекреационного потенциала** [7]

По мнению А.С.Кускова рекреационный потенциал основывается на двух базовых ресурсах – это рекреационные ресурсы и социально-экономические (рис. 2).

1. Рекреационные ресурсы - характеризуются природными и антропогенными ресурсами. Если природные ресурсы включают в себя физико-географические и биологические, то антропогенные – это материальные и духовные ресурсы.

2. Социально-экономические ресурсы имеют непосредственную связь с наличием и качеством рекреационно-туристской инфраструктуры, финансовыми, материально-техническими, кадровыми (включая менеджерский состав) и другими ресурсами [7], [12],[3] При этом А.С.Кусков социально-экономические ресурсы дифференцирует в зависимости от материальной и нематериальной специфики таких ресурсов. [7]

Анализ зарубежной литературы (в том числе стран дальнего зарубежья и стран СНГ), а также отечественных исследований показал, что вопросы классификации военно-рекреационного и военно-туристского потенциала региона мало изучены, и нами какой-либо классификации найдено не было. В этой связи, появилась необходимость в разработке классификации военно-рекреационного и военно-туристского потенциала региона. При этом, исходя из цели исследования, было решено разработать единую классификацию военно-рекреационно-туристского потенциала региона (рис.3).




**Рис.3. Классификация военно-рекреационного потенциала**

На основании проведённого анализа считаем возможным предложить:

1. Внести ясность в само понятие «военно-рекреационный потенциал». Считаем возможным дать следующее определение понятию «военно-рекреационный потенциал» - *это наличие и качество военно-рекреационной инфраструктуры, военно-рекреационных и военно-исторических ресурсов, использование которых направлено на организацию и подготовку первичной военной и физической подготовки населения (в том числе детей и подростков), восстановление здоровья в процессе службы (включая различные заболевания и морально-психологические проблемы).*

2. Согласно разработанной классификации (рис.3), предлагаем разделить военно-рекреационный потенциал по трём основным категориям:

1. Военно-рекреационные ресурсы, основанные на физико-географических характеристиках территории:

- флора и фауна территории. Военной спецификой и особенностью выделения растительного и животного мира территории при организации данной деятельности является выработка навыков действий в конкретных природных условиях, получение знаний относительно возможности использования растений (в том числе ягод, фруктов, овощей и т.д) при возникновении чрезвычайных ситуаций (ЧС) и агрессий.

- климатические. Климат один из наиболее актуальных вопросов современной действительности. Выработка навыков поведения при возникновении ЧС ситуаций, знаний относительно сохранения жизнеспособности организма и его выживания.

- орографические и гидрологические особенности территории. Позволяет активизировать физическое состояние населения, выработать навыки поведения в различных условиях (различных гидроусловиях и ландшафтах) в том числе в ЧС и агрессии;

- лечебные. Эта категория используется в рекреационных целях, направленных на восстановление здоровья военнослужащих и сотрудников различных служб.

2. Военно-исторические ресурсы. Эта категория имеет прямую взаимосвязь с наличием и качеством данного вида ресурсов, что, в свою очередь, может повысить аттрактивность территории. В этой категории сконцентрированы такие ресурсы как:

- археологические;

- документальные. Наличие документальных, архивных данных по историческим сражениям, значимым событиям и т.д. Наличие таких фактов может, к примеру, создать дополнительную военно-рекреационно-туристскую аттрактивность территории. К примеру, ретроспектива значимых событий, на основе которых можно организовывать фестивали, состязания и т.п.;

- архитектурные, градостроительные;

- искусствоведческие;

- геоинформационные.

Нужно отметить, что данная категория является основополагающей при военно-патриотическом воспитании населения.

3. Военно-рекреационная инфраструктура. Эта категория имеет социально-экономическую основу, которая при создании привлекательных условий и эффективной реализации инфраструктурных проектов, может стать реальной возможностью не только увеличения ВРП, но и улучшения благосостояния населения.

Анализ основных составных частей и классификаций является базой, позволяющей проводить оценку военно-рекреационно-туристской аттрактивности территорий.

**Использованная литература**

1. Стратегия действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах (Приложение № 1 к Указу Президента РУ от 07.02.2017 г. № УП-4947).

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 гг.» под № УП-60 от 28 января 2022 года.

3. Амирханов М.М., Татаринов А.А., Трусов А.Д. Экономические проблемы развития рекреационных регионов — М.: ОАО «Изд-во «Экономика», 1997- С.11.

4. Балкарской Республики Агрессия Причины последствия: Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. - Москва, 2010. - 153 с.

5. Берковиц, Л. Агрессия: причины последствия и контроль / Л. Берковиц. - М., 2001. - 512 с.

6. Большаков В.В. Агрессия против разума / В.В. Большаков. - М.: Молодая гвардия, 1984. – С. 68.

7. Карданов Б. Р. Роль рекреационно-туристического комплекса в экономике региона (на примере Кабардино-Балкарии)

8. Маклаков, А. Г. Общая психология / А.Г. Маклаков. - СПб.: Питер, 2000. - 592 с.

9. Мэй, Р. Искусство психологического консультирования / Р. Мэй. - М.: Класс, 1994. - 320 с.

10. Рахмалева О.В. Культурный туризм как фактор социально-экономического развития региона: Автореф. дис. на соис. к.э.н. -СПб.:Издательство СПбГУЭФ, 2000. –С.16

11. Сельченок, К. Психология человеческой агрессии / К. Сельченок [Электронный ресурс]. Режим доступа: http://www.aquarun.ru/psih/agr/default.htm.

12. Янчук С.Л. Факторы формирование полюсов и линий роста в экономике Узбекистана: 11.00.02-Экономическая и социальная география: Автореферат дис. на соискание кандидата географических наук – Ташкент – 2002.- С.23.

**Алимова Г.А. Развитие военно-рекреационных территорий как фактор укрепления военной мощи независимого Узбекистана**

Статья посвящена анализу развития военной рекреации как фактора укрепления военной мощи Независимого Узбекистана. Особое внимание уделено перспективам развития территорий страны с повышенным военно-рекреационным потенциалом. В статье приведены индикаторы анализа и оценки военно-рекреационных территорий и их природно-экономического потенциала. Рассмотрены структура и компоненты природного и экономического потенциала территории, разработана классификация военно-рекреационного потенциала, предложено авторское определение понятия «военно-рекреационный потенциал».

**Alimova G.A. Mustaqil O‘zbekistonning harbiy qudratini mustahkamlash omili sifatida harbiy-rekreatsion hududlarni rivojlantirish**

Maqola mustaqil O’zbekistonning harbiy qudratini mustahkamlash omili sifatida harbiy rekreatsiyaning rivojlanishini tahlil qilishga bag’ishlangan. Harbiy-rekreatsion salohiyati yuqori bo’lgan mamlakat hududlarini rivojlantirish istiqbollariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Maqolada harbiy rekreatsiy hududlarini, ularning tabiiy-iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholash ko'rsatkichlari keltirilgan. Hududning tabiiy va iqtisodiy salohiyatining tuzilishi va tarkibiy qismlari ko'rib chiqiladi, harbiy rekreatsiy potentsialining tasnifi ishlab chiqiladi, muallif “harbiy rekreatsiy potentsiali” tushunchasining ta’rifi taklif etiladi.

**Alimova G.A. Development of military-recreational territories as a factor of strengthening the military power of independent Uzbekistan**

The article is devoted to the analysis of the development of military recreation as a factor in strengthening the military power of Independent Uzbekistan. Special attention is paid to the prospects for the development of the country's territories with increased military and recreational potential. The article presents indicators of analysis and evaluation of military-recreational territories, their natural and economic potential. The structure and components of the natural and economic potential of the territory are considered, the classification of military-recreational potential is developed, the author's definition of the concept of "military-recreational potential" is proposed.

**Olimjonov Xushnudbek Maxamadsalim o‘g‘li,**
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Davlat huquqiy fanlar va inson huquqlari kafedrasi dotsenti,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

# YANGI O‘ZBEKISTONDA ISLOHOTLAR VA QONUNIYLIK ISTIQBOLLARI

Adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta’minlashning eng asosiy va zarur shartidir[1].

Mustaqillikning dastlabki yillarida mahalliy ofitser kadrlar yurtimizdagi harbiy xizmatchilar umumiy sonining shunga e’tibor bering – atigi 0,6 foizini tashkil etardi. Ofitserlarni tayyorlash esa uchta harbiy bilim yurtida va bor yo‘g‘i uchta harbiy mutaxassislik bo‘yicha olib borilar edi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida qo‘shimcha ravishda yangi, zamonaviy uchta harbiy ta’lim muassasasi tashkil etildi, kursantlarni o‘qitish tizimi esa ko‘p tarmoqli asosda yo‘lga qo‘yildi[2].

Prezidentimiz – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqida “Keyingi paytlarda Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasi bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida so‘z yuritganda, Milliy gvardiya tashkil etilganini alohida ta’kidlash lozim. Ma’lumki, bu maxsus harbiy bo‘linma faoliyati jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish, aholini turli terrorchilik xatarlaridan, jinoiy va boshqa noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilishga qaratilgan. Qisqa vaqt ichida Milliy gvardiya mamlakat xavfsizligini ta’minlash tizimidagi muhim bo‘g‘inga aylandi va Qurolli Kuchlar tarkibiy qismlari bilan yaqin hamkorlik o‘rnatdi”[3].

1991 yil 31 avgustda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Bu muhim hujjat mamlakatimizda harbiy siyosatni amalga oshirish uchun hamda “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risida”gi bayonot mamlakatimiz Qurolli Kuchlarini tuzish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”[4].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992 yil 14 yanvardagi qarori bilan respublikamiz hududidagi barcha harbiy qism va muassasalar O‘zbekiston Respublikasi tasarrufiga o‘tkazildi.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida Qurolli Kuchlarimizning bosh huquqiy asoslari o‘z ifodasini topdi va u faqat davlatimiz suvereniteti hamda hududiy yaxlitligini, xalqimizning tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tashkil etilishi belgilab qo‘yildi.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 4 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni bu boradagi sa’y-harakatlarga poydevor qo‘ydi.

Istiqlol tufayli bugun davlatimiz o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun yetarli darajada Qurolli Kuchlariga ega, erishilgan mustaqillik, ozodlik, erkinlik va tenglik kabi huquqlarimizni himoya qilishga qodir milliy armiyamiz mavjud.

Istiqlol yillarida Bosh qomusimiz va uning asosida O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi, “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi xizmat to‘g‘risida”gi, “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi, “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati

konsepsiyasi, Prezidentimiz qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi va sohaga doir boshqa qonun hujjatlari qabul qilindiki, bu bilan Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilishi, tuzilishi va rivojlanishiga doir milliy qonunchilik bazasi shakllandi, armiyamizning huquqiy maqomi yanada mustahkamlandi.

Mustaqillik yillarida harbiy xizmatni takomillashtirish va isloh qilish bo‘yicha ham ulkan ishlar amalga oshirildi. Yangi tahrirdagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonun bilan muddatli harbiy xizmatning 12 oy qilib belgilanishi, safarbarlik chaqiruvi rezervidagi harbiy xizmat turi amalga kiritilishi, yiliga bir marotaba — fevral-mart oylarida muddatli harbiy xizmatga chaqirish va uni o‘tab bo‘lgan fuqarolarni Qurolli Kuchlar rezerviga mart-aprel oylarida bo‘shatish tartibi joriy etilishi natijasida armiyamizdagi axloqiy-ruhiy va ma’naviy muhit tamoman yangilandi.

Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga imtiyoz, imkoniyat va shart-sharoitlar ko‘lami ham tubdan kengaytirildi. Jumladan, muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan harbiy xizmatchilar va kontrakt bo‘yicha oddiy askarlar hamda serjantlar tarkibidagi harbiy xizmatchilar shahar yo‘lovchilar transportidan (taksidan tashqari) bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lishdi. Harbiy xizmatchilarni farzandlarini imtiyozli umumiy kvotadan tashqari oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga kirishlari uchun qo‘shimcha imtiyozlar berildi.

Mustaqillik sharofati bilan bugun harbiy ta’lim muassasalarida harbiy-vatanparvar, sog‘lom fikr va hayotiy pozitsiyasiga ega, zamonaviy fikrlaydigan, har tomonlama yetuk, professional ofitserlar va yuqori malakali serjantlar yetishib chiqmoqda.

Hammamizga ma’lumki, vatanparvarlik dunyodagi eng oliy tuyg‘ulardan biri hisoblanadi. Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yurt tinchligiga xizmat qilishga o‘zining hayotini bag‘ishlaydi, o‘zining ma’naviy kamoloti uchun yuksak mas’uliyatni his etishga, o‘z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg‘unlashtirib yashashga da’vat etadi. Darhaqiqat, bularning hammasi vatanparvarlik tuyg‘usida namoyon bo‘ladi.

Shuni aytish joizki, Ona Vatanimizning ravnaqi uchun O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi qaysi sohada ishlashi yoki qaysi kasbni egallashidan qat’i nazar tinch va osuda hayotimizni ko‘z qorachig‘idek asrab, uning buyuk kelajagi yo‘lida ongli ravishda sidqidildan xizmat qilsa, o‘zining Vatanga bo‘lgan muhabbatini namoyon qilgan bo‘ladi.

Dunyo shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bugungi zamonda, xalqimizning ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va urf-odatlariga mutlaqo zid bo‘lgan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarni jamiyatimiz hayotiga turli yo‘llar bilan singdirishga qaratilgan urinishlar kuchaygan, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini egallash uchun keskin kurash ketayotgan bir sharoitda, Vatan himoyasiga shay turgan yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini oshirish borasidagi ishlarimizni hamkorlikda amalga oshirishimiz barchamizdan talab etiladi.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan maqsad – jamiyatda yuqori ijtimoiy faollikni, fuqarolarni ayniqsa, mudofaa va xavfsizlik tuzilmalari harbiy xizmatchilari, kursant va tinglovchilarni xavfsizlikni ta’minlash borasidagi mas’uliyati va javobgarligini oshirish, ularda vatanga va burchga sadoqat, mardlik, jasurlik, fidoyilik, halollik kabi insoniy fazilatlarni qaror toptirish va Vatan ravnaqi yo‘lida vijdonan xizmat qilishga safarbar etishdir[5].

Yurtboshimiz Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga yo‘llagan tabrigida: “Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy himoya qilish, harbiy shaharchalarda zamon talablariga javob beradigan ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda kompleks dasturlar amalga oshirilmoqda. Ana shu dasturlar doirasiga 15 mingdan ortiq harbiy xizmatchilar oilasi uy-joy bilan ta’minlangani,

ayniqsa e’tiborlidir[1]”— deya alohida ta’kidlaganidan ham ijtimoiy himoya harbiy boshqaruv siyosatining doimiy va ustuvor vazifalaridan biri ekanini anglash qiyin emas.

E’tirof etish kerakki, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini ijtimoiy muhofaza qilish masalasi birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Qonunchiligimizda harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarini xizmat turar joylari bilan ta’minlash, uy-joyni xususiylashtirish, uzoq muddatli ipoteka kreditlaridan foydalangan holda kvartiralar sotib olish va uy-joy qurish uchun yer uchastkalari ajratish, turar joyni ijaraga olganlik uchun har oylik pul kompensatsiyasi to‘lash va boshqa qator imtiyozlar hamda bunga doir ishlarni amalga oshirishning huquqiy mexanizmi mustahkamlab qo‘yilgan.

Harbiy xizmatchilar va ular oila a’zolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish, huquq-tartibot va harbiy intizomni ta’minlashda qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishiga erishish borasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan ham qator chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida, el-yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan tarbiyalash maqsadida umumiy, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’limi muassasalarida, mehribonlik uylarida milliy armiyamiz qudrati va nufuzini, mardlik va fidoyilikni targ‘ib etuvchi mavzularda muntazam ravishda huquqiy soatlar va uchrashuvlar tashkil etib kelinmoqda.

Ayniqsa, xalqimiz hayotidagi muhim sanalar va bayramlar arafasida O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchilari tomonidan mehribonlik uylarida tarbiyalanayotgan bolalarning ko‘nglini ko‘tarish, ularni qiziqtirgan va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga hamda ularni ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan mavzularda targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazish, harbiy qism va muassasalarga, harbiy ta’lim muassasalariga “Ochiq eshiklar kuni” tarzida sayohatlar uyushtirish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan.

Ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolarining huquqiy bilimi va huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirish, huquqiy tarbiya ishlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilib, yangi qabul qilingan qonunlar, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar mazmun-mohiyatini ijrochilarga, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolariga hamda keng jamoatchilik e’tiboriga yetkazish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonuni va sohaga oid qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini ijrochilar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari o‘rtasida keng targ‘ib qilish ishlariga doimiy e’tibor qaratilgan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi tomonidan harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari huquqiy savodxonligini yuksaltirish, ularda ogohlik va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini yanada oshirish, tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash borasida targ‘ibot tadbirlari keng yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, mustaqil ona Vatanimizdagi tinch va osuda, xavfsiz va farovon turmushimizni, erkin va ozod hayotimizni asrash, buning uchun ogoh va xushyor bo‘lish har birimizning burchimizdir.

MDHga a'zo ayrim davlatlarning qonunchilik tizimida xavfsizlik sohasidagi munosabatlar alohida "Xavfsizlik to'g'risida"gi qonun orqali tartibga solingan. Jumladan Rossiya Federatsiyasining "Xavfsizlik to'g'risida"gi qonunida xavfsizlik - shaxs, jamiyat va davlatning hayot uchun muhim manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holati deb ta'rif berilgan[6]. Bunda hayot uchun muhim manfaatlar shaxs, jamiyat va davlatning mavjud bo'lishi va rivojlanishi uchun ishonchli ta'minlaydigan ehtiyojlar yig'indisi deb tushuncha berilgan. Xavfsizlikning asosiy obyektlariga shaxs uning huquq va erkinliklari, jamiyat uning moddiy va ma'naviy qadriyatlari, davlat va uning konstitutsiyaviy tuzimi, suvereniteti va hududiy yaxlitligi kiradi[7].

Qozog'iston Respublikasining "Milliy xavfsizlik to'g'risida"gi qonunida jamoat xavfsizligiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan xavf va tahdidlardan fuqarolarning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy himoyalangan holati deb ta'rif berilgan[8].

Holbuki, Asosiy Qonunimizning 3, 25, 57 va 125-moddalarida har bir shaxsning daxlsizligi, mamlakatimizning chegara va hududlarining daxlsizligi, uning

konstitutsiyaviy tuzumining himoya qilinishi hamda Qurolli Kuchlarning aholining tinch hayoti va xavfsizligi hamda mudofaa salohiyatiga ko‘maklashish bilan bog‘liq normalarning konstitutsiyaviy asoslari belgilab o‘tilgan[2]. Konstitutsiyadagi real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiy ofat va epidemiyalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyat yuzaga kelganda davlat rahbarining qarori bilan mamlakatning butun hududi yoki ayrim joylarida favqulodda holat joriy etilishi konstitutsiyaviy mustahkamlangan.

**Uchinchidan,** tizimlashtirish, shu jumladan, kodifikatsiyalash natijasida yangi qonun hujjati yaratilishi ko‘zda tutiladigan bo‘lsa, u konstitutsiyaviy talablarni kafolatlashga qaratilgan normalarni qamrab olishi lozim bo‘ladi. Ya’ni, “huquq ijodkorligi faoliyati Konstitutsiyani amalga oshirishning huquqiy vositasi hisoblanadi”[9].

Qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish huquqiy tizim amal qilishining, muntazam rivojlanib borishining sharti hamda amaldagi qonunchilik hujjatlarini tartibga solish, mantiqiy umumlashtirishning shaklidir[10]. Mavjud qonunchilik hujjatlarini kodeks shaklida tartibga solingan hujjatlar bilan almashtirib borish, qonunlar majmuini yaratish, mamlakat huquqiy klassifikatorini takomillashtirish, shuningdek, qonunchilik resurslaridan foydalanish tizimini zamonaviy global elektron axborot tarmog‘i imkoniyatlari bilan ta’minlashga qaratilgan yaxlit, uzluksiz ilmiy-nazariy hamda amaliy faoliyatdir[1].

Jumladan, Konstitutsiyamizning 43-moddasida “davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta’minlaydi” hamda 23-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq ta’minlanadi” deya ta’kidlab o‘tilgan. Bundan kelib chiqadiki, fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning o‘zini xavfsiz his qilishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qiladigan shaxs va jamoat xavfsizligini ta’minlash, ularning hayoti va sog‘lig‘i, erkinliklari, huquqlari va qonuniy manfaatlarini jamiyatning qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilishga qaratilgan konseptual yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

B.P. Kondrashovning ta’kidlashicha, “fuqaro va shaxsning jamoat xavfsizligi sohasidagi huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash bo‘yicha huquqiy normalar muhim tartibga soluvchi rol o‘ynaydi”[11]. Shu bois, fuqaro o‘zining huquqiy savodxonligi darajasidan kelib chiqib, huquqlarining buzilishiga oid tegishli huquqiy normani qidirib topa olmasligi mumkin. Fikrimizcha, jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatida fuqarolarning huquqlari va burchlari bilan bog‘liq normalarni qonunchilik tizimida alohida bo‘lim sifatida ajratish maqsadga muvofiq.

Zero, fuqaroning o‘zi izlagan qonunni tez va oson topishiga erishish qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirishning eng asosiy maqsadidir[1].

Normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish davlat mexanizmi va huquqiy tizim jo‘shqin maromda ishlashining zaruriy shartidir[1]. Shu bois, Konstitutsiyamizda belgilangan jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq qonunchilikni tizimlashtirish jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini oqilona yo‘lga qo‘yish uning nazariy va metodologik asoslari hamda mukammal mexanizmini ishlab chiqilishiga xizmat qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 apreldagi PF-6218-son Farmoni[12]ga asosan “2022 – 2025 yillarda normativ-huquqiy hujjatlarni qonunchilik tarmoqlari bo‘yicha tizimlashtirish dasturi” ishlab chiqilgan. Dasturga muvofiq jamoat tartibi va jamoat xavfsizligini muhofaza qilish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish 2025 yil II choragigacha amalga oshirish rejalashtirilgan.

Fikrimizcha, qonunchilik hujjatlarini tizimlashtirish orqali demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatini shakllantirishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, fuqarolarning huquqiy

madaniyatini oshirishga hamda hokimiyatlarning o‘zaro muvozanati va hamkorligini ta’minlovchi mexanizmning shakllanishiga erishiladi.

**To‘rtinchidan,** jamiyat rivojlanib borar ekan, turli yangi ijtimoiy munosabatlar shakllanishi bilan birga qonunlar ham, xususan Konstitutsiya ham takomillashib boradi. Ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijtimoiy davlat prinsipidan kelib chiqib isloh qilinmoqda. Ushbu islohotlarda tom ma’noda Bosh Qomusimizga xalqimiz tashabbusi va takliflari asosida juda katta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmoqda. Buning natijasi o‘laroq Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi meningkonstitutsiyam.uz sayti orqali umumxalq muhokamasiga qo‘yilgan. Konstitutsiyaviy qonun loyihasi orqali Konstitutsiyaning 64 ta moddasiga 200 dan ortiq o‘zgartishlar kiritish, 6 ta yangi modda bilan 16 ta yangi norma qo‘shish taklif etilmoqda. E’tiborli jihati, Konstitutsiyaviy qonun loyihasining 8-qismida keltirib o‘tilgan 20-moddaning 2-qismida “Insonning huquq va erkinliklari faqat qonun bilan va boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, shuningdek jamoat xavfsizligini va tartibini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan doirada cheklanishi mumkin” degan mazmundagi o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan to‘ldirilgan[13]. Xususan, Loyihaning 12-qismida keltirib o‘tilgan 29-modda quyidagicha mazmunda “Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Har kim Internet jahon axborot tarmog‘iga kirish va undan erkin foydalanish huquqiga ega.

Mazkur huquqlarni cheklashga faqat mavjud konstitutsiyaviy tuzumni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini, jamoat xavfsizligini hamda tartibini himoya qilish, shuningdek davlat siri yoki boshqa sir deb e’tirof etilgan axborot oshkor etilishining oldini olish bilan bog‘liq hollarda, qonun bilan yo‘l qo‘yiladi”[13] belgilangan.

Ma’lumki, mamlakatimiz Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari ifodalangan bo‘lib ularning cheklanishi faqat qonun bilan belgilanishi bilan bog‘liq havolaki normalar mavjud. Xolbuki, yuqorida taklif etilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning kiritilishi jamoat xavfsizligi ta’minlanishi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi tahdidlarni samarali va o‘z vaqtida bartaraf etishda, nafaqat Milliy gvardiya balki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatining huquqiy asosi tom poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

Fikrimizcha, konstitutsiyaviy normalarining qisqacha tahlili Konstitutsiyada jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson, jamiyat va davlat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda yanada aniqlashtirish hamda qonunni qo‘llash madaniyatining barqaror rivojlanishiga imkon beradi, deb hisoblaymiz.

Bizningcha, Konstitutsiya Milliy gvardiya tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik tizimining rivojlanishi uchun eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan konseptual qoida va prinsiplarni belgilab beradi. Konstitutsiyadan keyingi o‘rinda turuvchi, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlashdagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjat sifatida qonunlar xizmat qiladi.

Shu bois, konstitutsiyaviy normalarni bir xilda qo‘llashni ta’minlash maqsadida Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini qisman tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni[5], “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni[14], “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[15], “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni[16], “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni[17], “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”

Qonuni[18] hamda boshqa bir qator qonunlar qabul qilingan.

Bulardan 2020 yil 18 noyabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun[5]i jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga soluvchi qonun hujjatlarining yuqori va eng asosiy darajasi sifatida davlat va jamiyatni qonunga xilof tajovuzlardan, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilish, aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar hamda boshqa shu kabi tahdidlardan muhofaza qilish kabi belgilangan majburiyat va vakolatlarini o‘zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Qonun[5]da Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyati bilan bog‘liq to‘g‘ridan-to‘g‘ri vazifa va majburiyatlar bo‘lmasa-da, jamoat xavfsizligini ta’minlashning ayrim tarkibiy elementlarini o‘zida mujassam etgan asosiy vazifalar, faoliyat yo‘nalishlari hamda vakolatlari o‘z aksini topgan. Vaholanki, bugungi kunda Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi konsepsiyasi[19]ga muvofiq jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar qatoriga kiritilgan.

Fikrimizcha, Milliy gvardiya to‘g‘risidagi Qonuni[5]ning 3-moddasi ikkinchi qismini quyidagi:

“jamoat xavfsizligini ta’minlash, jamiyatni qonunga xilof tajovuzlar, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilish, hamda jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlash” tahriridagi jumla bilan mos ravishda to‘qqizinchi xatboshi deb to‘ldirish, to‘qqizinchi- o‘n uchinchi xatboshilarni tegishincha o‘ninchi – o‘n to‘rtinchi xatboshlari etib hisoblash maqsadga muvofiq.

Hozirda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid munosabatlarni tartibga solish uchun ko‘p miqdordagi qonunchilik hujjatlari qabul qilingan bo‘lib, ularni tushunish va amalda to‘g‘ri qo‘llash uchun turli huquqiy mezonlar asosida tasniflashimiz lozim bo‘ladi. “Normativ-huquqiy hujjatlarni tasniflash, – deb yozadi Z.M.Islomov, – yuridik kuchi, mazmuni, harakat qilish doirasi, chiqargan subyektlari singari turli asoslarga ko‘ra amalga oshiriladi”[20].

Xususan, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid umumiy masalalarni tartibga soluvchi qonunlarning o‘zi ham ikki guruhga bo‘linadi: maxsus, ya’ni davlat va jamiyatni qonunga xilof tajovuzlardan, ijtimoiy va millatlararo nizolardan himoya qilish, aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar hamda boshqa shu kabi tahdidlardan muhofaza qilish sohasida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi hamda maxsus bo‘lmagan – ya’ni garchand, qonunchilikning boshqa tarmog‘iga mansub bo‘lsa-da, umumiy jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasi normalarini qamrab olgan qonunlar. Birinchi guruhga O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni[5], O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabr kunidagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni[14], O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” Qonuni[18], O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 15 iyun kunidagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni[15], O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 17 avgust kunidagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni[16], O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabr kunidagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni[17], 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi Qonun[21]lar va b.q.; ikkinchi maxsus bo‘lmagan guruhga 2000 yil 31 avgustdagi “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi, 2004 yil 3 dekabrdagi “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi, 2015 yil 26 avgustdagi “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi qonunlar[22] va h.k.lar kiradi. Bundan tashqari, alohida qonunlar guruhi mavjud bo‘lib, ular ayrim umumiy tartibga soluvchi normalarni

qamrab oladi. Ular sirasiga O‘zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentabrdagi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi va 2019 yil 10 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) qonunlari[23] va shu kabilar kiradi.

Shubhasiz, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun[5] bu borada to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi, bosh, kompleks qonun hisoblanadi. Zero, u birinchidan, jamoat xavfsizligini ta’minlash va huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir norma va talablarni belgilaydi; ikkinchidan, boshqa barcha jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini tartibga solishga oid qonun hujjatlari mazkur bosh hujjatning asosiy prinsip va talablariga mos bo‘lishi lozim; uchinchidan, fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga, jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi ommaviy tartibsizliklarga hamda boshqa g‘ayrihuquqiy xatti-harakatlarga chek qo‘yishda tashkiliy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmni belgilab beradi.

Yuqorida qayd etilgan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid amaldagi milliy va xalqaro-huquqiy hujjatlarning asosiy prinsiplari va harakat mexanizmi mushtarak holda mamlakatimizning jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi asosiy qonunida o‘z aksini topishi lozim. Vaholanki, “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonun[5] bugungi kunda Milliy gvardiya tomonidan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid huquqiy munosabatlarni qamrab olishga hamda mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan boshqa subyektlar bilan ushbu sohaga oid faoliyatning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik mexanizmlarini muvofiqlashtirishga qodir emas.

Fikrimizcha, biz buni quyidagilar bilan izohlashimiz mumkin:

*birinchidan*, hech bir qonunda bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etib borayotgan “jamoat xavfsizligi” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra aniq yoritib berilmagan;

*ikkinchidan*, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi Qonuni[5]ning “Milliy gvardiyaning huquqlari” deb nomlanuvchi 26-moddasida Milliy gvardiya zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishda o‘z vakolatlari doirasida huquqlari hamda amalga oshirishi mumkin bo‘lgan vakolatlari doirasi belgilab berilgan. Biroq, Milliy gvardiyaning jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq vazifalar ya’ni ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig‘ilishlar, namoyishlar o‘tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo‘ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash; terrorchilik harakatlarining hamda tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish; favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o‘tkazish; shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish kabilarni bajarishda Milliy gvardiya organi harbiy xizmatchilarining huquqlari hamda vakolatlari o‘z aksini topmagan.

*uchinchidan*, O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabr kunidagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘RQ-737-son Konstitutsiyaviy Qonuni[17] ning 21-moddasida jamoat xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq favqulodda holat rejimini ta’minlashda qo‘llaniladigan kuch va vositalar belgilab berilgan. Biroq, favqulodda holatda jalb etiladigan harbiy xizmatchilarning qonunchilikka muvofiq favqulodda holat joriy etilgan hududda qanday vakolatlar, huquqlar hamda majburiyatlarga ega ekanligi yoritib berilmagan. Zero, vakolat, huquq hamda majburiyatlar doirasining belgilanmaganligi harbiy xizmatchilarning harakatlari o‘zida qonuniylik prinsipini aks ettirmaydi.

Mamlakatimizda jamoat xavfsizligi konsepsiyasining qabul qilinishi jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining istiqbolli yo‘nalishlarini belgilab berilishida keng imkon yaratdi[19]. Zero, jamoat xavfsizligini ta’minlashda inson huquqlarini ta’minlash, jamiyat va davlat manfaatlarining muhofazasi Konstitutsiyamizning tegishli moddalarida hamda jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasiga oid o‘nga yaqin qonun va ko‘plab qonunosti hujjatlarida belgilandi, davlat

dasturlari va milliy harakat rejalari tizimli ravishda ro‘yobga chiqarilmoqda, jamoat xavfsizligini ta’minlash tizimida nodavlat-notijorat tashkilotlari va jamoatchilikning roli sezilarli darajada kengaytirildi. So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi qonun hujjatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi qonun darajasiga yetib, havola etuvchi normalar qo‘llanilishi darajasi qisqarmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Odilqoriyev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. – T: «Adolat», 2018. – B. 201-329.
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // lex.uz (murojaat sanasi 09.08.2022 yil)
3. Одилқориев Х.Т. Қонун ижодкорлиги соҳасидаги ҳуқуқий сиёсат: шаклланиши ва амалга оширилиши // Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академиясининг ахборотномаси. – Тошкент, 2015. – №2. – Б.5. (Б.3-9)
4. Бундай белгилар сирасига Конституцияни қабул қилувчи субъект ҳуқуқий мақоми, уни қабул қилиш ва ўзгартиришнинг ўзига хос тартиби, конституциявий кўрсатмаларнинг таъсисчи, бирламчи хусусияти, олий юридик кучи ва бошқалар кўрсатилади. Бу ҳақда қаранг: Чухвичев Д.В. Законодательная техника. 2-е изд. – М.: Закон и право, Юнити, 2012. – С.62-67.
5. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 18 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risidagi” Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 22.08.2022 yil)
6. http://www.internet-law.ru/law/inflaw/sec.htm (murojaat sanasi 28.08.2022 yil)
7. Маматқулов С.С. “Ички ишлар идоралари фаолиятини такомиллаштириш ўзбекистон республикаси жамоат хавфсизлигини таьминлашнинг муҳим омили сифатида” магистирлик дис. -Т., 2011. – 12 б.
8. http://www.medialaw.ru/exussrlaw/l/kz/national.htm. (murojaat sanasi 12.03.2020 yil)
9. Хабриева, Т.Я. Правовая охрана Конституции. – Казань, 1995. – С. 11.
10. Марченко, М.Н. Проблемы общей теории права и государства/Под. общ. ред. проф. В.С. Нерсесянца.– М., 2008. – С. 347; Теория права / Под. ред. проф. М.Н. Марченко. – М., 1998. – С. 197–198.
11. Кондрашов, Б.П. Общественная безопасность и административно-правовые средства её обеспечения. Дис. д-ра юрид. наук: 12.00.02. -М.: РГБ, 2003 (Из фондов Российской Государственной библиотеки).
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 aprel kunidagi “Milliy qonunchilik bazasini kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6218-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 04.09.2022 yil)
13. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi // meningkonstitutsiyam.uz (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)
14. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 15 dekabr kunidagi “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi 167-II-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)
15. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 15 iyun kunidagi “Qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-778-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)
16. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 17 avgust kunidagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-790-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 08.09.2022 yil)
17. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 15 dekabr kunidagi “Favqulodda holat to‘g‘risida”gi O‘RQ-737-son Konstitutsiyaviy Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)
18. O‘zbekiston Respublikasining 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar

profilaktikasi to‘g‘risida” O‘RQ-371-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabr kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-27-son Farmoni // lex uz. (murojaat sanasi 01.09.2022 yil)

20. Исламов З.М. Общество. Государство. Право. – Ташкент, 2001. – С. 484.

21. O‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi “Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-80-II-son Qonuni // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)

22. O‘zbekiston Respublikasining “Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-120-II-son Qonuni (31.08.2000 yil); O‘zbekiston Respublikasining “Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-710-II-son Qonuni (03.12.2004); O‘zbekiston Respublikasining “Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-393-son Qonuni (26.08.2015) // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)

23. O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘RQ-913-XII-son Qonuni (02.09.1993); O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi (yangi tahrirdagi) O‘RQ-591-son Qonuni (10.12.2019) // lex.uz. (murojaat sanasi 27.08.2022 yil)

**Xo‘jamberdiyev F.K. O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining jamoat xavfsizligini ta’minlash faoliyatini huquqiy ta’minlashda qonun hujjatlari normalarining o‘rni va ahamiyati**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasining O‘zbekistonda jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini poymol etilishini oldini olishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ushbu munosabatlarni tartibga solishda qabul qilingan qonun hujjatlari normalarining o‘rni o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: jamoat xavfsizligi, terrorizm, favqulodda holat, huquqbuzarliklar profilaktikasi, normative-huquqiy hujjat va boshqalar.

**Хужамбердиев Ф.К. Роль и значение норм законодательства в деятельности Национальной гвардии Республики Узбекистан по правовому обеспечению общественной безопасности**

В статье отражены реформы, проводимые в Узбекистане Национальной гвардией Республики Узбекистан в сфере обеспечения общественного порядка и общественной безопасности по защите прав и свобод граждан, недопущению нарушений их законных интересов, а также раскрыто значение норм законодательства, принятых для регулирования правовых отношений.

Ключевые слова: общественный порядок, общественная безопасность, терроризм, чрезвычайное положение, профилактика правонарушений, нормативно-правовые акты.

**Xujamberdiev F.K. The role and significance of legislation in the legal support of public security of the activities of the National guard of the Republic of Uzbekistan**

This article reflects the reforms carried out in the field of ensuring public order and public security in Uzbekistan by the National Guard of the Republic of Uzbekistan, protecting the rights and freedoms of citizens, preventing the violation of their legitimate interests, and also reveals the meaning of the norms of legal acts adopted to regulate these relations.

Key words: public order, public safety, terrorism, state of emergency, prevention of offenses, regulations and etc.

**Гаранова Виктория Александровна,**
независимый соискатель кафедры «Экономических дисциплин»
Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

# СОЦИАЛЬНАЯ ЗАЩИЩЁННОСТЬ ОСУЖДЕННЫХ ПЕНСИОНЕРОВ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

В этом году наша страна отмечает 31 годовщину со дня принятия государственной Независимости. Республика Узбекистан известна своей богатой историей, которая своими корнями уходит в глубь тысячелетий. Много событий происходило здесь за весь период развития Узбекистана, но одним из важнейших из них было и остаётся обретение нашей страной государственной Независимости.

Обретение Узбекистаном государственной независимости стало важным историческим событием в жизни всех народов, проживающих в республике, оно ознаменовало начало новой исторической эпохи - эпохи свободы, национального возрождения и развития.

За годы независимости было сделано много — построено крепкое государство, установлено национальное единство, мир и согласие в обществе, на основе новейших технологий и инноваций достигнут экономический рост, сохранено и приумножено богатое историческое и культурное наследие, гарантирована национальная безопасность. Республика Узбекистан на мировом уровне принимает активное участие в решении общемировых и региональных проблем.

Народ Узбекистана поддерживает и одобряет своевременно принимаемые Президентом решения, непосредственно связанные с поддержанием темпов социально-экономических реформ, укреплением внутренней и внешней политики, соблюдением Конституции и законов, обеспечением прав и свобод граждан. Все перечисленые аспекты способствуют выходу Узбекистана на лидирующие позиции в мировом пространстве.

Провозгласив в Конституции принцип приверженности общепризнанным нормам международного права, Республика Узбекистан присоединилась более чем к 70-ти международным документам в области защиты прав человека и приняла на себя обязательства по созданию необходимых организационно-правовых условий для практического претворения их в жизнь.

Социальная политика является наиболее значимой сферой интересов современного общества и важнейшей частью деятельности нашего государства. Одним из её проявлений является пенсионное обеспечение, отвечающее принципам социально ориентированной экономики. Именно его организация делает возможным достижение целей социальной политики, направленной на поддержание доходов и трудовой мотивации, качества и уровня жизни как определённых, значительных по объёму групп людей, так и населения в целом.

Пенсионная система Узбекистана – это совокупность создаваемых в нашей стране правовых и организационных институтов и норм, имеющих целью предоставление гражданам материального обеспечения, гарантированного Конституцией Республики Узбекистан.

Пенсионное обеспечение является важной составной частью системы социальной защиты населения в нашей стране, предусматривающее осуществление комплекса мер экономического, правового, социального и организационного характера, направленного на обеспечение и поддержание жизненного уровня нетрудоспособного населения и малоимущих граждан.

Пенсионное обеспечение является основным компонентом социальной защиты и одной из главных функций государства, закреплённой в ст. 39 Конституции Республики Узбекистан:

«*Каждый имеет право на социальное обеспечение в старости в случае утраты трудоспособности, а также потери кормильца и в других предусмотренных законом случаях*» [2].

Граждане Республики Узбекистан имеют право на государственное пенсионное обеспечение в порядке, определяемом Законом Республики Узбекистан «***О государственном пенсионном обеспечении граждан***».

*Пенсия – это ежемесячная денежная выплата, право на получение, которой определяется в соответствии с условиями и нормами, установленными законом, и которая предоставляется лицам в связи с наступлением пенсионного возраста, инвалидности или потери кормильца* [5].

Принятый в 1993 году Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан» позволил значительно усовершенствовать систему пенсионного обеспечения и способствовал защите интересов пенсионеров, повышению их материального благосостояния, укреплению принципа социальной справедливости, усилению мотивации к высокооплачиваемому производительному труду в процессе перехода к рыночной экономике.

За годы независимости в целях создания действенного механизма государственной пенсионной системы и дальнейшего её совершенствования был утверждён ряд новых нормативно-правовых документов, внесены изменения и дополнения в пенсионное законодательство, в том числе были приняты:

1. Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан», г. Ташкент, 3 сентября 1993 г.
2. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 12.05.1994 г. N 250 «Об утверждении списков производств, учреждений, работ, профессий, должностей и показателей, дающих право на пенсию на льготных условиях»;
3. Закон Республики Узбекистан от 02.12.2004 г. N 702-II «О накопительном пенсионном обеспечении граждан»;
4. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 21.12.2004 г. N 595 «О мерах по реализации Закона Республики Узбекистан «О накопительном пенсионном обеспечении граждан»»;
5. Постановление Президента Республики Узбекистан от 28.06.2005 г. N ПП-110 «О дополнительных мерах по совершенствованию и техническому оснащению накопительной пенсионной системы»;
6. Указ Президента Республики Узбекистан от 30.12.2009 г. N УП-4161 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы пенсионного обеспечения граждан»;
7. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 08.09.2011г. N 252 «О порядке назначения и выплаты государственных пенсий»;
8. Постановление от 25.01.2012 г. Министерства труда и социальной защиты населения N 2-К и Министерства финансов N5 «Об утверждении Инструкции о порядке применения списков производств, учреждений, работ, профессий, должностей и показателей, дающих право на пенсию на льготных условиях»;
9. Указ Президента Республики Узбекистан от 12.12.2018 г. N УП-5597 «О дополнительных мерах по усилению социальной поддержки пенсионеров и повышению эффективности системы пенсионного обеспечения граждан»;
10. Постановление Президента Республики Узбекистан от 04.05.2021 г. «О мерах по дальнейшему упрощению процесса назначения государственных пенсий и совершенствованию системы доставки пенсий и пособий гражданам».

Отдельной категорией пенсионеров, имеющих право на получение пенсии, являются осужденные пенсионеры. Данная категория пенсионеров довольно многочисленна, в связи с чем вопрос её пенсионного обеспечения весьма актуа-

лен.

Лица, отбывающие наказания в местах лишения свободы, нуждаются в защите, так как не могут самостоятельно реализовывать свое право на пенсионное обеспечение в полном объёме самостоятельно. Осужденные пенсионеры продолжают оставаться членами общества, нуждающимися в социальной поддержке со стороны государства.

В соответствии с действующим до августа месяца 2019 года законодательством, лицам, отбывающим наказание в местах лишения свободы, назначение пенсий не производилось, а лицам, получавшим пенсии до осуждения, данные выплаты приостанавливались на весь период отбывания наказания.

В целях обеспечения социальной защищённости данной категории лиц, а также принимая во внимание тот факт, что в колониях-поселениях осуждённые питаются и одеваются за счёт собственных средств, автором было внесено предложение, которое в дальнейшем было одобрено на законодательном уровне, выплачивать в колониях данного вида пенсии по возрасту, инвалидности и другие виды пенсий.

В августе 2019 года были внесены изменения в Закон Республики Узбекистан ***«О государственном пенсионном обеспечении граждан»***, в статью 43 и статью 53, согласно которым за осужденными пенсионерами закреплялось право на получение пенсии. В частности, статья № 53 гласит: «*Выплата пенсий лицам, осужденным к лишению свободы, отбывающим наказание в колониях-поселениях, осуществляется районными (городскими) отделами внебюджетного Пенсионного фонда при Министерстве финансов Республики Узбекистан по месту нахождения колонии-поселения путём перечисления причитающихся сумм пенсий на лицевые счета осужденных*»;

Таким образом, на сегодняшний день действующее пенсионное законодательство не содержит ограничений для осужденных на пенсионное обеспечение. В соответствии со статьей 53 Закона Республики Узбекистан ***«О государственном пенсионном обеспечении граждан»*** и статьей 96 ***Уголовно-исполнительного кодекса*** Республики Узбекистан осужденным пенсионерам в колониях-поселениях выплачиваются пенсии по возрасту и инвалидности.

**Динамика осужденных пенсионеров Республики Узбекистан по полу**



Так, например, в 2019 году численность осужденных пенсионеров, отбывающих наказание в колониях-поселениях, составляла 365 человек, из которых 305 мужчины (84%) и 60 женщины (16%). При этом только 75 человек (20,54%) из них фактически получали пенсию.

Оставшаяся часть осужденных пенсионеров не получала пенсию по различным причинам. Среди них:

- отсутствие документов, подтверждающих стаж работы, дающий право на получение пенсии;
- отсутствие родственников или других доверенных лиц, способных оказать посильную помощь в сборе документов;
- отсутствие необходимого трудового стажа (не менее 7 лет);
- осужденные пенсионеры являются бывшими сотрудниками ОВД или других силовых структур и др.

Осужденные, отбывающие срок наказания, часто обращаются в отделения Пенсионного Фонда Республики с заявлениями о помощи по оформлению пенсии по возрасту. Оформить пенсию можно находясь в колонии-поселении, если на момент наступления пенсионного возраста гражданин отбывает наказание.

При отсутствии родственников или других доверенных лиц, способных оказать помощь осужденному пенсионеру в сборе документов при оформлении пенсии, пенсия осужденных оформляется администрацией той колонии-поселения, где осужденный отбывает наказание, через местные органы социальной защиты. Выплату пенсий осуществляют уполномоченные органы социальной защиты по месту нахождения исправительного учреждения, путём перечисления пенсии на лицевые счета осужденных.

Если осужденные по прибытии в исправительное учреждение получали пенсию или пособие, то они продолжат их получать. Осужденным предоставлено также право на компенсацию ущерба в случае утраты трудоспособности в период отбывания наказания в исправительном учреждении. Данное право может быть реализовано сразу по факту наступления нетрудоспособности.

Благодаря большой работе, проделанной сотрудниками системы исполнения наказания совместно с работниками Пенсионного фонда, по состоянию на конец 2020 года из 289 пенсионеров, в том числе 251 мужчина (87%) и 38 женщин (13%) отбывающих наказания в колониях-поселениях системы исполнения наказания Республики Узбекистан 140 человек (48,4%) стали получать пенсии. При этом расходы государства на выплату пенсий осужденным пенсионерам в 2020 году составили 101 776 429,05тыс. сумм, а средняя пенсия осужденного составила 726 974,49 сумм.

Оставшаяся часть пенсионеров (51,6%) не получала пенсии по объективным причинам, в первую очередь из-за отсутствия трудового стажа.

На конец 2021 года в системе исполнений наказаний находился 281 осужденный пенсионер, в том числе 250 мужчин (89%) и 31 женщина (11%). Из общего количества пенсионеров, отбывающих наказания в колониях-поселениях системы исполнения наказания Республики Узбекистан 164 человека (58,4%) стали получать пенсии. При этом расходы государства на выплату пенсий осужденным пенсионерам в 2021 году составили 111 961 363,04 тыс. сумм, а средняя пенсия осужденного была равна 731 773,61 сумм.

Оставшаяся часть пенсионеров, не получающая пенсии по объективным причинам, составила 41,8%.

**Динамика пенсионеров осужденных, получающих пенсию в Республике Узбекистан**




Составлено автором на основе данных ДИН.

Таким образом, можно сделать вывод, что число пенсионеров отбывающих наказания в колониях поселения системы исполнения наказаний Республики Узбекистан, получающих пенсии по возрасту и инвалидности непрерывно растёт. В 2021 году по сравнению с 2019 годом этот показатель вырос более чем в 2 раза (75 человек в 2019 году и 164 человека в 2021 году). А число пенсионеров, не получающих пенсии по объективным, не зависящим от государства причинам неуклонно снижается, снижение за два года составило 173 человека или почти 60% (290 человек, не получающие пенсии в 2019 году и уже всего 117 человек в 2021 году).

В части 1 статьи 25 Всеобщей декларации прав человека [6] говорится о том, что каждый человек имеет право на достойный жизненный уровень, который необходим для стабильного существования его и членов его семьи.

Проделанная сотрудниками системы исполнения наказания кропотливая работа позволила сотням осужденных получить законный источник для своего существования, что дало возможность на практике воплотить принцип социальной защищенности уязвимых слоев населения в Республике Узбекистан за годы независимости.

Конечно, система пенсионного обеспечения осужденных в Республике Узбекистан на сегодняшний день не является совершенной и требует дальнейшей доработки.

Дальнейшее совершенствование законодательства в области социального и пенсионного обеспечения осужденных должно, на наш взгляд, базироваться на международных нормах, и при этом учитывать тенденции развития нашего государства, общества, менталитет нашего народа. Оказание социальной помощи кроме основной своей функции по материальной поддержке, выполняет ещё и важную воспитательную функцию, являясь для осужденного стимулом к исправлению.

**Использованная литература**

1. Мирзиёев Ш.М. Речь на торжественной церемонии празднования 30-летия Независимости Республики Узбекистан, 31.08.2021, http://www.press-service.uz.

2. Конституции Республики Узбекистан, «Адолат», 2017.
3. Трудовой кодекс Республики Узбекистан, «Адолат», 2014.
4. «Уголовно-исполнительный кодекс» Республики Узбекистан – Т.: O’zbekiston, 1996.
5. Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан», г. Ташкент, 3 сентября 1993 г.
6. Всеобщая декларация прав человека (принята Генеральной Ассамблеей ООН 10.12.1948) // СПС «Консультант Плюс».
7. Адриановская Т.Л., Карданова И.В. Право социального обеспечения. Институт пособий и компенсационных выплат. М.: ЮНИТИ-ДАНА: Закон и право, 2015 - .455

**Гаранова В.А. Социальная защищённость осужденных пенсионеров в Республике Узбекистан за годы независимости**

Статья посвящена вопросам защиты прав пенсионеров, отбывающих наказание в колониях-поселениях системы исполнения наказаний Республики Узбекистан. В ней проанализирована государственная политика нового Узбекистана по вопросам пенсионного обеспечения лиц, осужденных к лишению свободы.

Ключевые слова: Государственная независимость, пенсии, пенсионная система, осужденные пенсионеры, государственная поддержка, колонии-поселения.

**Garanova V.A. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida sudlangan pensionerlarning ijtimoiy ta’minoti**

Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi jazoni ijro etish tizimidagi koloniyalarda jazoni o‘tayotgan pensionerlarning huquqlarini himoya qilishga bag‘ishlangan. Unda yangi O‘zbekistonning ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning pensiya ta’minoti borasidagi davlat siyosati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: davlat mustaqilligi, pensiyalar, pensiya tizimi, sudlangan pensionerlar, davlat ko‘magi, koloniyalar-turar-joylar.

**Garanova V.A. Social security of convicted pensioners in the Republic of Uzbekistan during the years of independence**

This article is devoted to the protection of the rights of pensioners serving sentences in penal colonies of the penitentiary system of the Republic of Uzbekistan. It analyzes the state policy of the new Uzbekistan on pension provision of persons sentenced to imprisonment.

Key words: state independence, pensions, pension system, convicted pensioners, state support, colonies-settlements.

**Mahkamov Durbek Nematovich,**
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent

# YEVROPA DAVLATLARIDA YASHIL HUDUDLARNING HUQUQIY MUHOFAZASI: TAHLIL VA TAKLIF

So‘nggi 5 yillikda OAV, ilmiy-tadqiqot asarlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarda “yashil makon”, “yashil iqtisodiyot”, “yashil chegara”, “yashil shahar” kabi tushunchalar ishlatila boshlandi. Bularning barchasi aniq chegara va manzilga ega bo‘lgan hudud, bir so‘z bilan aytganda, tabiiy hudud nuqtai nazaridan ifoda etilmoqda.

Tabiiy hudud tushunchasi umumiy jihatdan sharhlaganda antropogen ta’sir bo‘lmagan, tabiiy obyektlar joylashgan va ma’lum chegaraga ega bo‘lgan hududni tushunish mumkin. Biroq ekologiya huquqi nazariyasida (jumladan qonunchilikda ham) tabiiy hudud o‘ziga xos ekologik maqomga ega bo‘lgan “muhofaza etiladigan tabiiy hudud” tushunchasi ko‘rinishida bayon etiladi. Ushbu tushunchaga olimlar uning tarkibiy qismiga kiruvchi tabiiy komplekslardan kelib chiqqan holda ta’rif berishadi. Aslida, ushbu tushunchalarni huquqiy tahlil va tadqiq qilishga nechog‘lik ehtiyoj va zarurat mavjud?

Ma’lumot sifatida aytish mumkinki, O‘zbekistonda 2022 yilda muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni mamlakat umumiy maydonining 8,3 foiziga yetkazildi, vaholanki ushbu ko‘rsatkich 2017 yilda 5,2 foizni tashkil etgan edi. [1]

Qolaversa, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ular maydonini xalqaro talablarga mos darajaga yetkazishning tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqilib, moliyaviy manbalari aniqlab berildi. Sohani tartibga soluvchi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10 ga yaqin farmon va qarorlari hamda Hukumatning maxsus dasturlari qabul qilindi va ular ijrosi bilan 5 ta yangi muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tashkil etildi.

Demak, tahlil etilayotgan tabiiy kompleksni muhofaza etishga ehtiyoj mavjud va uning huquqiy rejimini belgilanishi shart. Bu borada ilmiy-nazariy g‘oyalarni tahlil qilish hamda xorijiy davlatlarning sohaga oid tashkiliy-huquqiy tizimini o‘rganish muhimdir.

Huquqshunos olimlar M.B.Usmonov va O.X.Narzullayevning fikricha, muhofaza etiladigan tabiiy hudud xo‘jalik muomalasidan to‘liq yoki qisman, vaqtincha yoki doimiy chiqarilgan, alohida ekologik, estetik, ilmiy, dorivor ahamiyatga ega bo‘lgan tabiiy obyektlar va majmualarni o‘z ichiga olgan hududlar (suv hududlari)dir. [2]

Yuridik adabiyotlarda talqin qilingan ta'rifni shakllantirishda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish kerakligi ta'kidlangan:

birinchidan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning har bir toifasiga xos bo‘lgan umumiy, asosiy maqsadning mavjudligi;

ikkinchidan, tabiiy obyektlarni, tabiiy komplekslarni, biologik xilma-xillikni va umuman atrof-muhitni saqlash;

uchinchidan, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning turli toifalariga, ularning oldiga qo‘yilgan maqsadlarga qarab, turli xil vazifalar; muhofaza etiladigan tabiiy hududlarda ularning toifalariga qarab xo‘jalik faoliyatini taqiqlash yoki cheklash;

to‘rtinchidan, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar toifalari uchun hal qilinishi kerak bo'lgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda alohida huquqiy rejimni o‘rnatish. [3]

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda O‘zbekiston Respublikasi ekologik qonunchiligida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar jumlasiga davlat qo‘riqxonalari, majmua (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalari, tabiat bog‘lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko‘paytirish va tiklash uchun mo‘ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni

boshqarish uchun mo‘ljallangan hududlar kirishi bayon etilgan. Bundan tashqari qonunchilikda davlat biosfera rezervatlari, milliy bog‘lar, davlatlararo muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va boshqa muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etish nazarda tutilishi mumkin.

Yuqoridagi bayon etilgan toifalar muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab bo‘lingan. Mazkur bo‘linish tendensiyasi aksariyat MDH davlatlari qonunchiligida namoyon bo‘ladi.

E’tiborlisi, kichik jihat va rejimlarga ko‘ra maqomi belgilanganligi sababli bu toifalar son jihatdan G‘arbiy Yevropa davlatlari qoidalarida belgilangan toifalardan farq qiladi.

Aholi zich joylashgan va iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan Yevropa davlatlarida tabiiy hududlarning huquqiy rejimi o‘ziga xos ravishda ifodalanadi. Ularning tabiiy hududlarga nisbatan yondashuvi naturalistik yoki tabiatga aralashmaslik konsepsiyalarining ayrim g‘oyalariga hamohangligi bilan ajralib turadi. [4] Bu esa huquqiy normalarda ham o‘z aksini topgan holda huquqiy maqom darajasini belgilaydi.

Bu, tendensiya ayniqsa, G‘arbiy va Markaziy Yevropaga davlatlariga to‘g‘ri keladi, bu yerda asosan qishloq xo‘jaligi yerlari va antropogen o‘zgartirilgan landshaftlar orasida faqat yovvoyi tabiatning "orollari" saqlanib qolgan. Qoida tariqasida, bu joylar qo‘riqxonalarda yoki milliy bog‘larning asosiy zonalarida qat'iy muhofaza qilinadi.

Sharqiy Yevropada, asosan, Karpat va Bolqonda ko‘proq cho‘l hududlari qolmoqda. Ruminiya Karpatlarida umumiy 200 000 gektardan ortiq maydonda qadimiy o‘rmonlar saqlanib qolgan. Hozirgi vaqtda Yevropaning kamida 18 foizi yovvoyi, antropogen ta’sirga uchramagan yerlarga tegishli bo‘lishi mumkin.

Shunday qilib, Yevropada hali ham yovvoyi tabiat mavjud va aholining yuqori zichligiga, hududning rivojlanishiga va tabiiy landshaftlarning kuchli parchalanishiga, rivojlangan transport infratuzilmasi va urbanizatsiya jarayonlariga qaramay, Yevropa yovvoyi tabiat jamiyati (EWS) 500 dan ortiq potensial cho'l hududlarini aniqladi.

Yevropada yovvoyi tabiatning qolgan burchaklarini, landshaftlar va ekotizimlarning umumiyligini saqlashga, alohida turlar va yashash joylarini muhofaza qilishga va umuman, biologik xilma-xillikni saqlashga katta e‘tibor beriladi. Yevropa hududining 1/5 qismi (MDH mamlakatlari bundan mustasno) turli toifadagi qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar bilan himoyalangan.

IUCN (The International Union for Conservation of Nature -Xalqaro Tabiatni Muhofaza qilish Ittifoqi) tasnifiga ko‘ra, bular qat'iy (IUCN toifasi) qo‘riqlanadigan landshaftlar va barqaror tabiatni boshqarishga ega hududlargacha bo‘lgan hududlar (mos ravishda V va VI IUCN toifalari) kiradi.

